

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIMI VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida 330.3(336)

ABDUG`ANIEV ALISHER MARDONOVICH

**JAHON BOZORLARIDAN INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING
IQTISODIY TAHLILI**

Mutaxassislik: 5A230601 «Davlat moliyasini boshqarish»

Magistr akadem darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy raxbar:

i.f.d. prof. T.S. Malikov

Toshkent – 2013

Ilmiy rahbar _____

Kafedra mudiri _____

i.f.n. dots. O.Kamolov

Magistratura bo'limi

boshligi' _____

i.f.n. dots. X. Axmedov

**Mavzu: Jahon moliya bozorlaridan investitsiyalarni jalb qilishning shart –
sharoitlari, imkoniyatlari va asosiy yo'nalishlari**

REJA:

Kirish.....	3
 1-bob. O'zbekistonga investitsiyalarni jalb qilishning nazariy va uslubiy asoslari.....	7
1.1. Investitsiyaning mazmun - mohiyati va iqtisodiyotda to'tgan o'rni.....	7
1.2. Investitsiya muhiti, uni yaxshilashning asosiy ko'rinishlari.....	18
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	29
 2-bob. Jahon bozorlaridan investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy tahlili.....	30
2.1. Investitsiyalar jalb qilishning iqtisodiy holati tahlili	30
2.2. Xorijiy investorlar uchun yaratilgan imtiyoz va preferensiyalar.....	39
2.3. Investitsiyalar jalb qilishning istiqbolini belgilash jihatlari.....	48
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	49
3-bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalar kirib kelishining foydalilik jihatlari va ularni takomillashtirish.....	50
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	51
Xulosa.....	78
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	81

Kirish

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi O'zbekiston sanoatini rivojlantirish bo'yicha belgilangan ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekistonda investorlar uchun qulay investitsiya muhiti, imtiyozlar va preferensiyalar tizimi yaratilgan. Iqtisodiyotimizga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar oqimining yildan-yilga ko'payib borayotgani ham shundan dalolat beradi.

O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini bugungi kunda deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi sub'ekt anglab yetganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, chet el investitsiyalarini kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas. Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga Chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, investitsiya jalb qilmay turib, iqtisodiyotni yetarli darajada rivojlantirib bo'lmaydi. Ana shuni e'tiborga olib, davlatimiz tomonidan mamlakatda investitsion muhitni shakllantirishga sharoit yaratish, uni tezlashtirish va rag'batlantirish maqsadida bir qator qonunlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Buning natijasi o'laroq, o'tgan yili yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etgan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining oshib borishi iqtisodiyot o'sishi barqaror yuqori sur'atlarining va uning tuzilmalarini diversifikatsiyalashning asosiy manbai bo'ldi. 11,7 milliard dollarga teng miqdorda yoki 2011-yildagiga

qaraganda 14 foiz ko'p investitsiyalar jalb etildi. Barcha investitsiyalarning 22 foizdan ortig'ini yoki 2,5 milliard dollardan ortiqni xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ulardan 79 foizdan ortig'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Barcha investitsiyalarning 74 foizga yaqini ishlab chiqarish qurilishiga yo'naltirildi. 205 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish tugallandi.¹

Tadqiqotning asosiy maqsadi va vazifalari. Respublikamizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Bular, eng avvalo, tadbirkorlik faoliyatini huquqiy jihatdan belgilab beradigan, xususiy mulkchilik va raqobatchilikni himoya qiladigan qonunlar bazasi yaratilganligi, investitsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmaning mavjudligi, siyosiy barqarorlik, qulay jo'g'rofiy joylashuv, boy mineral xom-ashyo resurslari, shuningdek, agrosanoat sektorini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarning borligi, eng muhimi, malakali mehnat resurslari hamda katta hajmdagi sotish bozori kabi omillarga ega ekanlikda yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, mamlakatda investitsiyaviy muhitni yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jixozlash va rekonstruktsiya qilish, respublikamizning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta'minlashga aloxida e'tibor qaratish lozimligi asosiy vazifalardan biridir.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Investitsiya faoliyatining rivoji uchun mavjud omillarni ilmiy tahlil qilish lozim bo'ladi. Bu tahlil mablag'lar yo'nalishining eng maqbul usulini tanlash va kelajakda har bir hududga mos keladigan investitsiya siyosatini belgilash imkoniyatini beradi.

Iqtisodiy o'sishga erishishda nafaqat investitsiya hajmini ko'paytirish,

¹ I.A.Karimov "Bosh maqsadimiz keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". – T.: "O'zbekiston" 18.01.2013yil

balki ular yo'nalishlari va tuzilmalarini to'g'ri tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalash uchun shunday ishlab chiqarish turlari va korxonalarni tanlash lozimki, ular tezda o'zini qoplab, yuqori darajada iqtisodiy va texnologik samara bera olishlari kerak.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Investitsiyalar jalb qilishning nazariy asoslari va rivojlanishi tendensiyalarini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlilidan xorij olimlari Dj.Tobin, I.Fisher, G.Markovis, U.Sharp, Dj.Gerli, Dj.Soros, A.Gitman, B.Taylor, L.Krushvis, Dj.Xiks, R.Elliot, R.Levayn, O.Morgenshtern, G.Markovits, J.Tobin, V. Sharp, F.Modilyani, M.Miller va boshqalarning ilmiy-amaliy ishlariga yuksak baho berish va ularni klassik ishlar qatoriga qo'shish mumkin. Bu ishlar xanuzgacha o'z kuchini saqlamoqda.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan investitsiya sohasiga tegishli tadqiqotlar A.Vahobov, T.Malikov, Sh.Shoxa'zamiy, N.Haydarov, S.Abdullaev, G'ozibekov D., T.Yadgarov, F.Xamidova, S.Arifjanova, X.Akromov, R.Zayniddinov, Sh.J.Teshaev, A.Mirisaev, D.Xo'jamqulov, S.Muminov, L.Sultanov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun investitsiya hajmini keskin ko'paytirish lozim bo'ladi. Hozirgi bosqichda mablag'lar yetishmovchiligini hisobga olib, nodavlat investitsiya manbalarini topish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish va moliyalashtirishda hali hal qilinishi zarur bo'lgan qator vazifalar borki, ular mavjud qonun va me'yoriy hujjatlardan to'g'ri foydalanadigan, va umuman investitsiyalardan samarali foydalanish bo'yicha kadrlarni tayyorlash ular malakasini muntazam oshirishni talab qilmoqda.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkiban kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqot ishining matni 87 betdan iborat.

I Bob. O'zbekistonga investitsiyalarni jalb qilishning nazariy va uslubiy asoslari

1.1 Investitsiyaning iqtisodiy mohiyati va iqtisodiyotda to'tgan o'rni

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tishi pog'onalarida turli mulkchilik shakllariga asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni ko'paytirish, jumladan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni va boshqaruv faoliyatining rivojlanishini taqozo etdi. Shuningdek, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va rivojlantirish, yangi investitsiya loyihalarini hayotga tadbiq etish va ularni moliyalashtirishning optimal variantlarini qidirib topish talablarini keltirib chiqardi. Amaliyotda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining hajmi, miqdori va moliyalashtirish manbalariga qarab iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlar haqida xulosalar chiqarish mumkin. Investitsiya loyihasi tushunchasining tobora keng qo'llanishi, avvalom bor, ushbu atamaning iqtisodiy mohiyatini anglab olish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so'zidan kelib chiqqan bo'lib «qo'yish», «mablag'ni safarbar etish», «kapital qo'yilmasi» ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya, mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida ham amalga oshiriladi, hamda o'zidagi yangi qurilishlarga, kengaytirishga, rekonstruksiya va faoliyat

ko'rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlashga, uskunalar, inventarlar, loyihaviy mahsulotlar sotib olishga sarf-xarajatlarni mujassamlashtiradi. Iqtisodiy fanlar va amaliyot "investitsiya" va "kapital qo'yilma" terminlari bir xil tushuncha emasligini, ya'ni sinonim so'zlar emasligini ta'kidlaydi. Investitsiyalar kapital qo'yilmaga nisbatan keng mazmunli, qamrovli tushunchadir. G'arb adabiyotlarida investitsiyalar borasida so'z yuritilganda asosiy e'tibor fond bozoriga qaratiladi, chunki rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar asosan qimmatli qog'ozlar yordamida amalga oshiriladi.

Investitsiya tushunchasi yagona va to'liq tushuncha berishlik uchun anchagina keng bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy fanning turli qismlarida va amaliy faoliyatning turli sohalarida investitsiya mazmuni o'zining xususiyatlariga ega. Investitsiyalar – joriy davrda iste'mol qilinmagan va iqtisodiyotda kapital o'sishini ta'minlovchi YaIM ning bir qismidir.

Investitsiyalarga aniq va ravshan ta'rif berish hamda ularning mulkiy shakllari, kapital qo'yilmalar, kapital, kredit tushunchalarining farqlarini ochib berish zaruriyati paydo bo'ldi. Zamonaviy moliya nazariyasi masalalari J.Fon. Neyman, O.Morgenshtern, G.Markovits, J.Tobin, V. Sharp, F.Modilyani, M.Miller va boshqalarning asarlarida rivojlantirilgan.

Moliya nazariyasida investitsiya deganda real yoki moliyaviy aktivlarni olishni tushuniladi, ya'ni bugungi sarflarning maqsadi kelajakda daromad olish bo'lib hisoblanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, investitsiyalar – muayyan qiymatni, bo'lishi noaniqroq bo'lgan kelajak qiymatga almashishdir

U.Sharp investitsiyalarni real va moliyaviy investitsiyalarga ajratib, ularga quyidagicha ta'rif beradi: "Real investitsiyalar asosan moddiy aktivlarga (yer, uskunalar, zavodlar) qilingan investitsiyalardir. Moliyaviy investitsiyalar bu qog'ozda bitilgan shartnomalardir. Bularga oddiy aksiyalar va obligatsiyalar kiradi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotda investitsiyalarning asosiy qismi real investitsiyalarga tegishlidir. Rivojlangan iqtisodiyotda esa investitsiyalarning

asosiy qismi moliyaviy investitsiyalash institutlarining keng miqyosida rivojlanishi real investitsiyalarning o'sishiga sababchi bo'ladi. Investitsiyalarning bu ikki shakli bir-biri bilan raqobatlashuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchidir".²

Hozirgi davrda "investitsiyalar" tushunchasi aksariyat xollarda keng ma'noda ishlatilmoqda. Iqtisod fanlarining turli tarmoqlarida, amaliy faoliyatning turli yo'nalishlarida investitsiyalashning maqsadlari, harakatlar yo'nalishi, sohalar xususiyatlari, safarbar etilish ob'ektlari, harakat yo'nalishlaridan kelib chiqib va ahamiyatiga qarab "investitsiyalar" tushunchasi o'ziga xos ma'noda ishlatiladi. Moliya nuqtai nazaridan ularning mazmun va mohiyatini aniq belgilash muhim vazifa hisoblanadi. Faqat kapitalni yo'qotish riski mavjud bo'lgan pul shaklidagi investitsiyalar yangi aktivlarni vujudga keltiradi. Investitsiyalarning mulkiy shaklidagi moddiy va nomoddiy ne'matlar va ularga bo'lgan huquqlarni iqtisodiy va boshqa faoliyatlarga jalb etish esa, bizning fikrimizcha, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida, investitsiyalar evaziga barpo etilgan aktivlarni ishlatishdan dalolat beradi. Bizningcha, investitsiyalar noaniqlik ehtimoli bo'lgan va kelgusida kutilayotgan qiymatga kapitalning aniq bugungi qiymatini almashtirishdan iboratdir.³ Buning dalili sifatida investitsiyalarning safarbar etilishida ularning ongli ravishda aniq va noaniq bo'lgan risklar bilan bog'lanishini keltirish mumkin.

Investitsiyalar qo'yidagi sifatlar bo'yicha klassifikatsiyalanadi:

1. Vositalarni qo'yish ob'ektlari bo'yicha:

- real investitsiyalar (moddiy va nomoddiy aktivlarga qo'yilmalar);
- moliyaviy investitsiyalar (moliyaviy vositalarga, ya'ni qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar).

² Sharp U., Aleksandr G., Beyli J. Investitsiya: Per.S ang.-M.:INFRA-M.1997.

³ G'ozibekov D. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.-T.: Moliya 2003.

Real investitsiyalar deb real aktivlarga (ya`ni material va nomaterial aktivlar) qo'yiladigan vositalar tushuniladi. Nomaterial aktivlarga qo'yiladigan vositalar ilmiy-texnik progress va innovatsion investitsiyalar bilan xarakterlanadi. Nomaterial investitsiyalardan foydalanishda biron-bir nomoddiy boylikni sotib olish, korxona ishchi-xizmatchilarining malakasini oshirish, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlarini olib borish ko'zda tutiladi. Material investitsiyalar ishlab chiqarish vositalarini va iste'mol predmetlarini sotib olishga asos bo'ladi. Real investitsiyalarga investitsion loyihalar va biznes-loyihalar kiradi. Biznes-loyiha deganda tadbirkorlik g'oyasini amalga oshirishga tayyorlangan kerakli tadbirlar tizimi tushuniladi, ushbu tadbirlar amalga oshishi natijasida ma'lum iqtisodiy natijaga erishiladi. Biznes-loyiha tushunchasi investitsion loyiha tushunchasidan aniq aks etib turuvchi tadbirkorlik yoki moliyaviy jixatlari bilan farqlanadi. Shu bilan birgalikda ekologik yoki ijtimoiy loyihalarda iqtisodiy, moliyaviy maqsadlar ko'zlanmaydi. Moliyaviy investitsiyalar deganda turli moliyaviy vositalarga, ya`ni qimmatli qog'ozlarni sotib olish, tijorat banklariga kapital qo'yish va boshqa kompaniyalar kapitalida ulushga ega bo'lishga qaratilgan kapital qo'yilmalar tushuniladi. Ular ko'pincha spekulativ xarakterga ega bo'ladi, yoki kapitalni uzoq muddatga qo'yishga qaratilgan bo'ladi. Fond birjalarida qimmatli qog'ozlar paketini sotib olish bilan bog'liq pul qo'yilmalari portfel investitsiyalar deb ataladi.

Real va moliyaviy investitsiyalarni ajratish investitsiyalar klassifikatsiyasining asosiy mezonini hisoblanadi.

2. Investitsiyalashda qatnashish xarakteri bo'yicha:

- to'g'ri investitsiyalar (investorlar investitsiyalashda to'g'ridan - to'g'ri qatnashadilar);
- egri investitsiya (investitsiyalash moliyaviy vositachilar yordamida amalga oshiriladi).

- To'g'ri investitsiyalar investorning investitsiyalash ob'ektini tanlashda va vositalarni qo'yishda to'g'ridan - to'g'ri qatnashishi ko'zda tutadi. To'g'ri investitsiyalashni investitsiyalash ob'ekti to'g'risida aniq axborotga ega yoki investitsiyalash mexanizmi bilan yaxshi tanish investorlar amalga oshiradilar.

- Egri investitsiyalar investitsion yoki moliyaviy vositachilar yordamida amalga oshiriladi. Ko'pincha hamma investorlar xam investitsiyalash ob'ektini tanlash va keyinchalik ularni boshqarish bo'yicha kerakli bilim va malakaga ega bo'lavermaydi, bunda ular investitsion yoki boshqa moliyaviy vositachilar yordamidan foydalaniladi va ular chiqargan qimmatli qog'ozlarni sotib oladilar.

3. Investitsiyalash muddati bo'yicha: qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalar mavjud. Qisqa muddatli investitsiyalarga asosan 1 yilga qo'yiladigan kapitallar kiradi (qisqa muddatli depozitlar, qisqa muddatli jamg'arma sertifikatlari). Uzoq muddatli investitsiyalar asosan 1 yildan ko'p muddatga qo'yiladi. Investitsion kompaniyalar amaliyotidan uzoq muddatli investitsiyalar quyidagicha tasniflanadi: a) 2 yilgacha; b) 2 yildan 3 yilgacha; v) 3 yildan 5 yilgacha; g) 5 yildan ortiq.

4. Investitsiyalash sub'ektlari bo'yicha:

- davlat investitsiyalari;
- korporativ investitsiyalar;
- xususiy investitsiyalar;
- xorijiy investitsiyalar

Davlat investitsiyalariga davlat boshqaruv organlari tomonidan byudjet hisobidan qilinadigan yoki davlat korxonalari tomonidan o'z hisobidan qilinadigan qo'yilmalar tushuniladi.

Korporativ investitsiyalarga mamlakat sub'ektlari bilan xorijiy davlat sub'ektlarining investitsiyalari kiradi.

Xususiy investitsiyalar mamlakat fuqarolari, nodavlat shakldagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladi

Xorijiy investitsiyalar chet ellik jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va davlatlar tomonidan amalga oshiriladi.

5. Regional sifat bo'yicha mamlakat ichidagi va undan tashqaridagi investitsiyalar ajratiladi. Mamlakat ichidagi investitsiyalarga ushbu davlat territoriyasida joylashgan investitsiyalash ob'ektlariga qo'yiladigan vositalar tushuniladi. Mamlakat tashqarisidagi investitsiyalarga mamlakat tashqarisida joylashgan investitsiyalash ob'ektlariga qo'yiladigan kapital qo'yilmalar tushuniladi.

Intellectual investitsiyalar patentlarni, litsenziyalarni, nou-xaularni, personalni tayyorlash va qayta tayyorlashni sotib olish ko'zda tutadi.


6. Foydalanish yo'nalishlari bo'yicha investitsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- yangi korxonani tashkil etish bilan bog'liq investitsiyalar;
- jismoniy va ma'naviy eskirgan ishlab chiqarish uskunalari almashtirish, ishlab chiqarishning asosiy vositalarini joriy va kapital ta'mirlash bilan bog'liq investitsiyalar;
- faoliyat yuritayotgan korxonalar ishlab chiqarish xajmini kengaytirishga, korxona ishlab chiqarish dasturi strukturasi o'zgartirishga qaratilgan investitsiyalar.

7. Investitsiyalash hajmi bo'yicha investitsiyalar nisbatan kichik, o'rta va katta investitsiyalarga bo'linadi. Bunda sohalar bo'yicha investitsiyalar chegarasini aniqlashga individual yondashiladi.

8. Investitsiyalash maqsadlari va ular bilan bog'liq risklar bo'yicha:

- venchur;
- to'g'ridan - to'g'ri;
- portfel;



1.1.1 Investitsiyalar tasniflanishi⁴

⁴ Mirzaeva Z.E. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. Termiz .2010

Investitsiya faoliyatini amalga oshirishni muhim shartlaridan biri muomalada bo'lgan pul birligini qadrsizlanishini oldini olishdir. Investitsiya faoliyatidan olinadigan samarani ko'paytirish maqsadida investitsiyalar hajmini, yo'nalishlarini va manbalarini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birgalikda yangi moliyalashtirish, kredit bilan ta'minlash, bahoni tahlil qilish, soliqqa tortish tizimlarini takomillashtirishdir. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, investitsiya faoliyatini tartibga solishda eng muhim va asosiy muammolardan biri chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni respublika mintaqalari bo'ylab bir tekis joylashtirishdir.

Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Xorijiy investitsiyalarning ichki investitsiyalardan farqi shundaki, ularda investor boshqa mamlakat fuqarosi bo'ladi. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra xorijiy investitsiyalar ssuda kapitali (ya'ni qarz va kredit), xamda to'g'ridan - to'g'ri va portfel investitsiyalarga bo'linadi. Investitsiyalar nimaga yo'naltirilganligi ular qaysi xorijiy investitsiya turiga kirishini belgilaydi.

Xorijiy investitsiyalar qo'shma korxonalarda o'z xissasi bilan qatnashib, xorijiy investorlarga to'liq tegishli bo'lgan korxonalarni yaratish, xususiyashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatbaxo qog'ozlarni sotib olishi, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bo'lishi, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishlari mumkin.

Maqsadiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar to'g'ridan - to'g'ri va portfel investitsiyalarga bo'linadi. To'g'ridan - to'g'ri investitsiyalar – bu kapitalni

to'g'ridan-to'g'ri eksporti bo'lib, investitsiya kirituvchiga shu korxona ustidan nazorat qilish huquqini beradi. Bunda korxona asosiy kompaniyaning xorijdagi shaxobchasiga aylanadi. To'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosan xususiy tadbirkorlik kapitali shaklida buladi.

Xalqaro statistikada investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar turiga kiritish bo'yicha har xil yondashuvlar mavjud. Xorijiy investorlar tomonidan nazorat qilish huquqini belgilovchi ko'rsatkich sifatida ular ega bo'lgan aksionerlik kapitalining xissasi ko'rsatkichidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkich AQSHda 10%, Fransiya va Buyuk Britaniyada 20% ga yaqin, Germaniyada 25%dan 50% gacha, O'zbekistonda esa 49% darajasida belgilangan. Shuningdek, shu korxonaning boshqaruvida to'g'ridan - to'g'ri amalga oshirilayotgan investitsiyalarning uzoq muddatli ekanligi ham uning muhim belgilaridan biridir. Investitsiyaning bu ko'rinishi tavakkalchilikni, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi uchun ma'suliyatni davlat va axoli zimmasiga yuklamasdan, balki ularni tadbirkorlik tizimlari o'rtasida taqsimlashning eng yaxshi va sinalgan usuli hisoblanadi.

Har taraflama asoslangan, puxta o'ylangan investitsiya qarorlari investitsiyalarini moliyalashtirishning ishonchli manbalari bilan chambarchas bog'liqlikda qabul qilish zarurligini va chet el kapitalini jalb qilishning kengayib borayotganligini hisobga oladigan bo'lsak, hozirgi zamon moliya nazariyasi nuqtai nazaridan investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyatini ochib berish, ularning eng muhim sifat tafsiflarini aniqlash g'oyat dolzarb masala hisoblanadi.


O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunida O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investorlar tomonidan qonun hujjatlariga zid bo'lmagan tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari ob'ektlariga aksariyat foyda (daromad) olish maqsadlarida kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlarning jami turlari, shu

jumladan, intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olinadigan har qanday daromad chet el investitsiyalari hisoblanadi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, investitsiyalarning harakatidan kelib chiqib zamon va makonning almashtirilishi va o'zga iqtisodiyotga kirib borishi namoyon bo'ladi. Investitsiyalarning turli shakllarda o'zga iqtisodiyotlarga kirib borishi yangidan investitsiya faoliyatini yo'lga qo'yishda, ularning turi va shakllaridan qat'iy nazar, yangitdan safarbar etilishini va bog'lanishini bildiradi. Milliy iqtisodiyot chetdan qo'yilma sifatida chet el kapitalini uning turli shakllarida (pul, tovar, mulkiy huquq, intellektual mulk va boshqalar) qabul qilishi mumkin. Ishlab chiqarish nazariyasi va umuman makroiqtisodiyotda investitsiyalar yangi kapitalni (ishlab chiqarish vositalari hamda inson kapitalini qo'shib hisoblanganda) yaratish jarayonidir.

Investitsiyalarning o'sish sur'atlari ko'p omillarga bog'liq. Avvalambor investitsiyalar hajmi olingan daromadni iste'mol va jamg'armaga taqsimlanishiga bog'liq. Axolini o'rtacha daromadi past bo'lgan holda ularning asosiy qismi (70-80%) iste'molga sarflanadi. Aholi daromadlarini o'sib borishi jamg'arishga yuboriladigan qismni ortib borishiga sabab bo'ladi. Umumiy daromadda jamg'arish ulushining ortib borishi investitsiyalar hajmini o'sishiga olib keladi, va aksincha. Ammo bu shart aholini davlatga ishonchi yuqori bo'lganda, davlat fuqarolarning investitsion faolligini ta'minlaganda va kafolatlaganda bajariladi. Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan daromad normasi ham ta'sir ko'rsatadi, chunki ko'rilayotgan foyda investitsiyalashga undaydi. Kutilayotgan foyda normasi qanchalik yuqori bo'lsa, investsiyalash hajmi shunchalik yuqori bo'ladi, va aksincha.

Investitsiyalar hajmiga ssuda foizi stavkasi katta ta'sir ko'rsatadi, chunki investitsiyalash jarayonida qarzga olingan mablag'laridan ham foydalaniladi. Agar kutilayotgan sof foyda normasi o'rtacha ssuda foizi stavkasidan yuqori bo'lsa bu qo'yilmalar investor uchun daromadlidir. Shuning uchun o'rtacha foiz

stavkasining o'sishi investitsiyalash jarayonining susayishiga olib keladi.(1.1.2. chizma)



1.1.2. Investitsiya funksiyasining grafigi⁵.

Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan inflyatsiya sur'atlari ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa investorning kelajakdagi foydasi shunchalik qadrsizlanadi va investitsiyalarni rag'batlantiruvchi omillar qisqarib boradi.

Investitsiyalar asosiy kapitalning elementlarini sotib olish bilan bog'liq bo'lib, ko'pchilik hollarda investitsion loyihalar doirasida amalga oshiriladi. Shuning uchun shaxsiy mablag'lar bilan birga qarzga olingan mablag'lar ham foydalanilishi mumkin. Qarzga mablag' olingan holda investor rolini aniq loyihalarga kredit mablag'lari ajratayotgan bank bajaradi. Nomoddiy investitsiyalar nomoddiy boyliklar yaratilayotganda amalga oshirilib, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish, yangi mahsulotlarning namunalarini yaratishga sarflarni mujassamlashtiradi.

Lekin, uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni sotib olish va qisqa muddatdan, masalan olti oy o'tgandan so'ng, investor uzoq muddatli qurolni qisqa muddatli

⁵ Sirojiddinov K. Xorijiy investitsiyalar. NamDU. 2009 y.

maqsadlar uchun foydalanish mumkin. Ko'pincha investorlar ana shunday qurollarni tanlaydilar va o'z pullarini qisqa muddatlarga qo'yishni xohlaydilar. Masalan, yaqin olti oy mobaynida investorga kerak bo'lmaydigan summaga, u olti oylik muddatga ega bo'lgan depozit sertifikatini sotib olishi mumkin: qirq yoshga to'lgan investor pensiyaga chiqquncha pul yig'ish uchun biron-bir kompaniyani obligatsiyasini 20 yilga sotib olish mumkin. Odatda uzoq muddatli investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida namoyon bo'ladi.

Investitsiyalash va chayqovchilik atamaları investitsiyalashga ikki turlicha yondashuvni anglatadi. Aytib o'tilgandek, investitsiyalash deganda qiymati barqaror turadigan va nafaqat daromadning ijobiy miqdorini olish, balki oldindan daromadni aytish mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlarni sotib olish jarayoni tushuniladi. Chayqovchilik shunday aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishdan iborat bo'lib, faqat ularning bo'lajak qiymati va kutilayotgan daromad darajasi ishonchli bo'lmagan holatdir.⁶ Albatta, tavakkalchilikning yuqori darajasida chayqovchilikdan yuqori daromad olish mumkin.

1.2. Investitsiya muhiti, uni yaxshilashning asosiy ko'rinishlari


O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini bugungi kunda deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi sub'ekt anglab etganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, chet el investitsiyalarini kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas.

⁶ Ғозибеков Д. /. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. -Т.: Молия 2003. 33 б.

Investitsiya muhiti- juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammolar va masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Investor tomonidan ma'lum bir davlatga investitsiya qilishning qulay va noqulay tomonlari baholanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi. Investitsiya muhiti har tomonlama chuqur tahlil qilinishi asosida investitsiya riski aniqlanadi. Investitsiya muhiti va risk darajalari bir-birlariga teskari nisbatdadir. Investitsiya muhiti qanchalik qulay bo'lsa, investorning tadbirkorlik riski shunchalik past darajada bo'ladi va bu investorlarning kirib kelishini ko'paytiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo'lsa, risk darajasi yuqori bo'ladi. Bu esa investitsiya qabul qiluvchining sarf-xarajatlarining o'sishiga olib keladi. Shunday qilib, investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir.

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik jixatdan qayta jixozlash va rekonstruksiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud mintaqalarida yangi ish o'rinlarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish maqsadida xorijiy investorlar uchun ishonchli xuquqiy himoya va kafolatlarni ta'minlab berilmoqda. Buning natijasi o'laroq, davlatimiz jahon mamlakatlari orasida ham yuqori iqtisodiy o'sishga erishmoqda.(1.2.1-rasm)

Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb etish strategiyasi bo'lajak chet ellik investorlarning manfaatlarini xamda milliy iqtisodiyotga zarar keltirmagan xolda ularni qondirish imkoniyatlarini o'rganishga asoslanadi. Buning uchun bir tomondan, iqtisodiyotni tarkiban qayta qurishga qaratilgan bir qator aniq loyixalarni amalga oshirish zarur bo'ladi va ikkinchi tomondan, ichki investitsiya resurslari yuqori baholanadi. O'zbekiston amalga oshirayotgan investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari orasida quyidagilarni aloxida ta'kidlab ko'rsatish mumkin:



1.2.1 O'zbekistonda YaIM dinamikasi⁷

—investitsiya jalb qilish uchun xalqaro me'yorlar va konvensiyalarga mos keladigan, sanoati rivojlangan mamlakatlar investorlari tomonidan tan olinadigan huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga intilish;

⁷ Statistik ma'lumotlar asosida dissertant tomonidan tuzildi.

—respublikaga jahon darajasidagi texnologiyalarni yetkazib beradigan va iqtisodiyotning zamonaviy tuzilishini vujudga keltirishga yordam beradigan investorlar uchun ochik eshiklar siyosatini izchillik bilan amalga oshirish;

—ishlab chiqarish bilan bog`liq loyixalarga qaratilgan valyutada o`zini-o`zi qoplashni ta`minlaydigan investitsiyalarga ko`maklashish;

—mamlakatning kredit qobiliyatini, O`zbekistonning birinchi darajali qarz beruvchi mamlakat sifatidagi obro`-e`tiborini qo`llab-quvvatlash;

—mamlakatning ayrim mintaqalarida ijtimoiy va ekologiya muammolarini hal qilishga qaratilgan investitsiyalarga yordam berish.

Investitsiya muhitini yanada yaxshilash shartlaridan biri bank tizimini takomillashtirish, moliya bozorida raqobatni vujudga keltirish, naqd puldagi va naqd bo`lmagan puldagi operatsiyalarni amalga oshirishni yaxshilash, shuningdek xorijiy investorlarni axborot bilan ta`minlashni yaxshilashdan iboratdir.

O`zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishi iqtisodiy o`shishning bir qator makroiqtisodiy omillarini keskin darajada kuchaytirilishini taqozo etadi. Bu soxada ro`y berayotgan jarayonlar voqealarning shiddatli almashinuvi bilan izoxlanadi. Mamlakatning iqtisodiy o`shishini qo`llab-quvvatlash va jadallashtirishda hal qiluvchi ro`lni ishlab chiqarish investitsiyalari o`ynashi kerak. Faqat investitsiyalar bazasidagina asosiy kapitalni yangilash xamda shu asosda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va sifatini yaxshilash evaziga maxsulotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Biroq bu hozirgi yuksak darajada integrasiyalashgan xo`jalik sharoitida davlatning muvofiqlashtiruvchi ro`li ob`ektiv ravishda ancha salmoqli bo`lib qolmoqda. Shu munosabat bilan investitsiya soxasiga davlatning faol aralashuviga yaqin yillar mobaynidagi makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida qaramoq darkor.

Bu esa strategik maqsad - iqtisodiy o`shishni ta'minlash uchun amalga oshirilmog`i, bu raqobatbardoshlik va milliy iqtisodiyotning barqaror

rivojlanishi mezonlariga javob berishi lozim. Strategik maqsadga erishish makroiqtisodiy rejalashtirish asosida ta'minlanishi mumkinki, investitsiya jarayonlarini davlat ro'li bilan makroboshqarib turish bunday rejalab turishning eng muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalarga asosan 2 guruh omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) iqtisodiy omillar:

-ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining bir maromda ushlab turilishi;

-jahon va aloxida mamlakatlar iqtisodiyotida chuqur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi (ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va jahon xizmatlar bozori taraqqiyoti ta'siri ostida olib borilishi);

-ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi;

-jahon iqtisodiyotini transmilliylashtirilishini o'sib borishi (AQSH Transmilliy korporatsiya (TMK)lari xorijiy filiallarining maxsulot ishlab chiqarish xajmi AQSH tovar eksportidan 4 marotaba ortiqdir);

-ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi;

-xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM)ning faol rivojlanishi va boshq.


2) siyosiy omillar:

-kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (Erkin iqtisodiy hududlar (EIX), offshor hududlari va boshq.);

-rivojlanayotgan mamlakatlarda industrialashtirish siyosatini olib borish;

-iqtisodiy isloxotlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiylashtirish, xususiy sektorni va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash);

-bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshqalar.⁸



1.2.4. Investitsion muhitga ta'sir qiluvchi omillar⁹

⁸ Z.Y.Xudoyberdiyev D.D. Rustamova N.M. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.T.:2010 yil.

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichi iqtisodiy o'sish yo'liga o'tib olish bilan izohlanadi. Bunday o'sish aloxida investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etadiki, u taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga, investitsiya resurslari va chet el investitsiyalarini jalb qilish sifatida mablag'lardan foydalanishning mavjud imkoniyatlariga tayanishi lozim bo'ladi. Chet el investitsiyalarini jalb etmay turib, xozirgi zamon talablariga javob beradigan ishlab chiqarishning tashkil etilishini ta'minlash mumkin emas.

Investitsiya jarayonlarini izga solib turishning iqtisodiy asoslarini yaratish, ishlab chiqilgan siyosatni amalga oshirishga imkon tug'diruvchi shart-sharoitni ta'minlash investitsiya siyosatining muhim vazifalaridan biri bo'lib, iqtisodiy o'sishga aynan shu yo'l bilan erishish mumkin. Bozor iqtisodiyoti kapital mulkka mo'ljallanayotgan investitsiyalar hajmi tegishli moliya aktivlarining daromadliligiga bog'liq bo'ladi. Daromad me'yorlari orqali esa ana shu aktivlarning baxosi investitsiyalarga bo'lgan talab va taklifga qarab belgilanadi. Davlat pul va kredit siyosati orqali investitsiyaga bo'lgan talab va taklifning nisbati xamda uning tarkibiy tuzilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday ekan, bu siyosat turli moliya aktivlaridan olinadigan daromad xajmiga xam katta ta'sir etadi. U investitsiya tovarlari bozorida investorlarning xatti-xarakatining bosh yo'nalishini, shunga bog'lik xolda investitsiyalar tarkibiy tuzilishini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi ko'p ukladli iqtisodiy davlat bulib unda investitsiyalar katta rol o'ynaydi. Investitsiyalar bo'yicha adabiyotlarni taxlil qilganimizda ushbu muammoga mualliflar har xil yondashadi.

Shu o'rinda "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq va respublikaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish

⁹ Imomov H.H. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. TDIU. 2011y.

uchun yanada qulay shart-sharoitlarni ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni ishonchli huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmini barpo etish, mana shu asosda mamlakatdagi investitsiya muhitini yanada yaxshilash maqsadida bir qator ishlar qilinganligini aytib o'tish joizdir.

Mamlakatimizning investitsion jozibadorligi keng ko'lamli sotish bozorlarining mavjudligi, Yevroosiyoning investitsion hamda savdo-iqtisodiy hamkorlik istiqbollari belgilab beruvchi multimodal kommunikatsiya tizimiga integratsiyalashgan transport infratuzilmasining rivojlangani bilan ham bog'liq. O'zbekistonga investitsiya kiritayotgan xorijiy kompaniyalar beshta yirik va jadal rivojlanib borayotgan bozor- 300 milliondan ortiq kishi savdo-sotiq qiladigan bozorlarga ega MDH mamlakatlari, Markaziy va Sharqiy Yevropa, Janubiy hamda Janubi-sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq davlatlariga chiqish imkoniga ega bo'lmoqda. Xalqaro investitsiya huquqining asosiy qoidalari, jumladan, xorijiy investorlar huquqlarini kafolatlash, investorlarga muayyan preferensiyalar taqdim etish to'g'risidagi qoidalar va boshqalarni o'zida mujassam etgan. O'zbekiston Respublikasining investitsiya qonunchiligi MDH mamlakatlari qonunchilik tizimida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. "Xorijiy investitsiyalar to'g'risida"gi, "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek, davlatimiz rahbarining va hukumatimiz qarorlari shaklida qabul qilinayotgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni huquqiy jihatdan tartibga solishda mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Jumladan, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish,

shuningdek, xorijiy investorlar bilan ishlashdagi turli byurokratik g'ovlar va to'siqlarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida 2012-yilning 10-aprelida Prezidentimiz Islom Karimovning "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan. Mamlakatimizda mana shunday samarali qonunchilik bazasi yaratilgani tufayli iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 4,2 mingdan ziyod korxona tashkil etilib, muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berilmoqda. Eng muhimi, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozli investitsiya muhiti yaratilgan. "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonunda, agar O'zbekiston Respublikasining keyin qabul qilingan qonun hujjatlari investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, unda chet ellik investorlarga nisbatan investitsiyalash sanasida amal qilgan qonun hujjatlari investitsiyalash paytidan boshlab o'n yil mobaynida qo'llaniladi. Chet ellik investor o'z xohishiga ko'ra yangi qonun hujjatlarining investitsiyalash shart-sharoitlarini yaxshilaydigan qoidalarini qo'llash huquqiga ega.

Misol uchun chet ellik investorga to'lanadigan dividendlar shaklida olinadigan daromadga solinadigan soliq miqdori stavkalari ko'paysa, respublika korxonalarining ustav fondlarida chet ellik investorning ulushli qatnashishi

bo'yicha cheklashlar joriy etilsa va bu chet ellik investorga ma'qul kelmasa, u investitsiyaga oid harakatlarini amalga oshirishni boshlagan sanada amal qilgan qonun hujjatlari asosida o'z faoliyatini davom ettiraveradi. Rivojlangan mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, investitsiya jalb qilmay turib, iqtisodiyotni etarli darajada rivojlantirib bo'lmaydi. Ana shuni e'tiborga olib, davlatimiz tomonidan mamlakatda investitsion muhitni shakllantirishga sharoit yaratish, uni tezlashtirish va rag'batlantirish maqsadida bir qator qonunlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmokda. Bu borada "Investitsion faoliyat to'g'risida", "Chet el investitsiyalari to'g'risida", "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari va bir qator qonun osti hujjatlari qabul qilindi. Bu qonun hujjatlari hayot taqozosi bilan takomillashib bormoqda.

Respublikamizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Bular, eng avvalo, tadbirkorlik faoliyatini huquqiy jihatdan belgilab beradigan, xususiy mulkchilik va raqobatchilikni himoya qiladigan qonunlar bazasi yaratilganligi, investitsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmaning mavjudligi, siyosiy barqarorlik, qulay jo'g'rofiy joylashuv, boy mineral xom-ashyo resurslari, shuningdek, agrosanoat sektorini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarning borligi, eng muhimi, malakali mehnat resurslari hamda katta hajmdagi sotish bozori kabi omillarga ega ekanlikda yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, mamlakatda investitsiyaviy muhitni yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruktsiya qilish, respublikamizning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumlan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun yanada qulay shart-sharoitlarni

ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni ishonchli huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmini barpo etish va shu asosda mamlakatdagi investitsiya muhitini yanada yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 2 maydagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 205-sonli Qarori qabul qilingan. Unga asosan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga xorijiy investorlarni va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni huquqiy himoya qilishni ta'minlash vazifasi yuklatilgan. Adliya vazirligi tizimida xorijiy investitsiyalar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni huquqiy himoya qilish boshqarmasi va hududiy boshqarmalarda tegishli bo'limlarning tashkil etilishi xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni huquqiy jihatdan har tomonlama qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotdagi o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu borada adliya organlari tomonidan xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar huquqlarini himoya qilish borasida samarali ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Adliya idoralari o'ziga yuklatilgan mazkur vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimizda investitsion muhitni yaxshilash borasida va huquqni qo'llash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish vazifasidan kelib chiqib, qonun hujjatlariga o'zgartirish kiritish bo'yicha hukumatga o'zining umumlashgan takliflarini doimiy ravishda taqdim etib kelmoqda. Joylarda qonunchilik ijrosini o'rganishda hamda tadbirkorlarning murojaatlarini ko'rib chiqishda asosiy e'tibor, ularning buzilgan huquqlarini sud tartibida, taqdimnoma kiritish yo'li bilan to'liq tiklash, qonunbuzilishda aybdor mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish, investorlar va investitsiya ishtirokidagi korxonalarga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarni undirib berishga qaratilmoqda¹⁰.

¹⁰ Sirojiddinov K. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. NamDu .2009y

Birinchi bob bo'yicha xulosalar.

- Har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi investitsiyalarga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflar tahlili uning juda keng tushunchaga ega ekanligini va uni har xil talqin qilish mumkin degan, xulosalarni keltirib chiqaradi.

- Investitsiya atamasining barcha jixatlarini umumlashtirib, unga foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foydalanib, cheklanmagan extiyojni qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma'lum muddatga sarflangan barcha turdagi boyliklar, deb ta'rif berish maqsadga muvofiqdir. Investitsiyaga kapitalning muayyan muddatga, muayyan jarayonga bog'lanishi deb ham qarash mumkin.

- Investitsiya faoliyatini mablag' solish va investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan barcha amaliy harakatlar yig'indisi deb ta'riflash maqsadga muvofiqdir.

- Bugungi kunda O'zbekistonda investitsiyalarning iqtisodiyot yuksalishidagi ahamiyatidan kelib chiqib, belgilangan vazifalarining amalga oshirilishini ta'minlashda Chet el investitsiyalarining aloxida o'rin tutishini inobatga olgan holda ularni barcha shakllari bo'yicha jalb etish chora-tadbirlarining bajarilish sifatini oshirish zarur.

- Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish, shuningdek, xorijiy investorlar bilan ishlashdagi turli byurokratik g'ovlar va to'siqlarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo'l qo'ymaslik zarur.

II Bob. Jahon bozorlaridan investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy tahlili

2.1 Investitsiyalar jalb qilishning iqtisodiy holati tahlili

O'zbekiston bugungi kunda yirik xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar qatoriga kirish uchun barcha iqtisodiy, siyosiy va xuquqiy asoslarga ega. Lekin bu degani O'zbekistonda xorijiy investorlarni jalb qilish uchun barcha ishlar qilib bo'lindi, degani emas. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki strategik investorlar ko'p miqdordagi mablag'larni birinchi navbatda iqtisodiyoti o'z ichki imkoniyatlari asosida barqaror va izchil ravishda rivojlanayotgan mamlakatga yo'naltiradi. Aynan shunday mamlakatlardagina qo'yilgan mablag'lar saqlanishiga va barqaror foyda olishga mo'ljal qilsa bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy tushunchalaridan biri investitsiyalar tushunchasi bugungi hayotimizga keng va tez kirib kelishining o'zi uning mohiyati va ahamiyatini, zarurligini ko'rsatadi. Shu boisdan ham vatanimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag'batlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu turdagi korxonalarni rag'batlantirish asosan soliq imtiyozlari orqali amalga oshiriladi. Chunki har bir investor o'z sarmoyasini biror hududga kiritar ekan uni befarq qoldirmaydigan va e'tiborini tortadigan asosiy masala u yerda amal qilayotgan soliq qonunchiligi hamda soliqlardan berilayotgan imtiyozlar masalasidir. Shu sababdan soliq imtiyozlarini to'g'ri yo'nalishlarda taqdim etish, ulardan samarali va oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish lozim, aks holda esa imtiyozlarni berishdan ko'zlangan maqsadlarga erishilmaslikka olib keladi. Shunga ko'ra, iqtisodiyotni faol rivojlantirish keng miqyosdagi investitsiyalarni talab qiladi.

Demak, investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi kuch ekan, barcha imkoniyatlarimizni ishga

solib iqtisodiyotimizga yo`naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirishimiz lozim.

MDX davlatlarining paydo bo`lishi bilan xorijiy investorlarning investitsion faoliyatlarini amalga oshirishdagi yangi imkoniyatlar maydoni paydo bo`ldi. Shuni aytish kerakki xorijiy investorlar bu masalada katta tajribaga ega. Albatta bu masalaning bir tomoni bo`lsa, ikkinchi tomoni investitsiyalar qabul qiluvchi davlatlari uchun zamonaviy ishlab chiqarish vositalarini qabul qilishdagi investitsion tanlov imkoniyati yaratildi. Bunga oddiy hol deb qarash kerak emas, chunki, investitsiyalar-iqtisodiyotni xarakatga keltiruvchi, uni olg'a siljituvchi kuch.

Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarining jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma`lumki, xar qanday davlat dunyodan ajralgan xolda jahon tajribalarini o`rganmasdan, dunyoning yetakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas. O`zbekiston iqtisodiyotida chuqur iqtisodiy islohatlar, tarkibiy o`zgarishlar amalga oshirilgan ekan, xorijiy investitsiyalar rivojisiz tasavvur etib bo`lmaydi.«Chet el investitsiyalari» tug`risida O`zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi Qonunining 3- moddasida «Chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun xujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob`ektlariga qo`shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O`zbekiston Respublikasi hududida Chet el investitsiyalari deb e`tirof etiladi».<sup>11</sup> Xorijiy investitsiyalarining umumiy ta`rifi F. Xeniusning 1947 yil AQSHda chop etilgan tashqi savdo lug`atining 2- nashrida quyidagicha berilgan: «Xorijiy

¹¹ O`zbekistonning yangi qonunlar. 19-son,-T.: Adolat,1998.532-bet.

investitsiyalar - bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport qilingan investitsiyalar»¹²

O'zbekiston jahon hamjamiyati oldida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasida geografik joylashishi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, xukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muxim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda respublikamiz tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar xissasiga to'g'ri kelmoqda.

2012 yilda yalpi ichki mahsulot 8,2 foizga, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi – 7 foizga, pudrat qurilish ishlari hajmi – 11,5 foizga, chakana tovar aylanmasi hajmi – 13,9 foizga o'sdi. Inflyatsiya sur'atlari rejalashtirilgan darajada saqlandi va 7 foizdan oshmadi. Bular Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda Chet el investitsiyasini jalb etishning tegishli tashkiliy-huquqiy, institutsional tuzilmalari va infratizimini yaratish hamda mavjud shart-sharoitlarni izchil rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganini yaqqol tasdiqlaydi. Ayniqsa, bunda qonuniy kafolatlarni yaratish alohida ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimizda ushbu sohani huquqiy tartibga soluvchi "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonun hamda bir qator boshqa qonun hujjatlari qabul qilindi. Ushbu qonunlarni qabul qilish, ularga zamon talablariga mos ravishda o'zgartish va qo'shimchalar kiritib borishning sababi bitta - qayerda imtiyoz, qayerda sharoit bo'lsa, qonuniy kafolat beriladigan bo'lsa, shu yoqqa investitsiya keladi. Mamlakatimizdagi siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy barqarorlik Chet el investitsiyasi uchun har tomonlama qulay sharoit yaratmoqda. Davlatimiz rahbarining oqilona siyosati natijasida qabul qilinayotgan imtiyozli muhitni yaratuvchi qonunlar chet ellik

¹² Samarxujayev B.B. Investitsii respubliki Uzbekistan. Tashkent, 2003g. C.16. Dictionary of Foreign Trade by F.Henus Sec/ Ed. N4.,1947, P.387.

investorlarda tobora katta qiziqish uyg'otmoqda. Xususan, 2008 yil 8 aprelda matbuotda e'lon qilingan "Bojxona imtiyozlarining qo'llanilish tartibini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi Qonun chet el investorlarini jalb qilish bo'yicha izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo'lgan. Ma'lumki, chet el investorlari mamlakatimiz hududida o'z ishlab chiqarish faoliyatini, qoidaga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil etish yo'li bilan amalga oshiradilar. O'z ehtiyojlari uchun yurtimiz hududiga zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalar, ularga butlovchi buyumlar, shuningdek, xomashyo va materiallar olib kirayotgan xorijiy investorlar uchun amaldagi qonun hujjatlarida muayyan imtiyozlar nazarda tutilgan. Jumladan, "Boj tarifi to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasi va "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasiga muvofiq, xorijiy investorlar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan mol-mulkka bojxona boji solinmas edi. Yangi qonun asosida - Chet ellik investorlar uchun yanada qulay muhit yaratish maqsadida - yuqorida qayd etilgan har ikki qonunga o'zgartishlar kiritildi. Endilikda nainki Chet ellik investorlar, ayni chog'da, ustav fondida Chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ham o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kiradigan mol-mulk bo'yicha boj undirilishidan ozod qilindilar. Mazkur qonunning qabul qilinishi natijasida "Boj tarifi to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasida va "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasida belgilangan imtiyozlar ustav fondida chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi qo'shma korxonalarga ham tatbiq etiladigan bo'ldi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatiga doir xuquqiy xujjatlar tizimida xorijiy investitsiyalar masalasiga bevosita taalluqdi bo'lgan qonunlar muxim o'rin tutadi. Vaqt o'tishi bilan iqtisodiy o'sishning jadal borishini ta'minlash, respublika iqtisodiyotiga xorijiy mamlakatlarning ilg'or texnologiyalarini jalb qilish va umuman jaxon andozalariga erishish uchun xorijiy investitsiyalar sohasidagi mavjud qonunchilik bazasini qayta ko'rib chiqish zarurati ob'ektiv ravishda paydo bulgan edi. Buning amalga oshirilgani natijasida xorijiy investorlarning salmog'i sezilarli darajada ko'paydi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni boshlanish davridan chet el investitsiyalarini jalb qilishga tuzilmaviy qayta qurishning hamda umumjahon iqtisodiy hamjamiyatiga kirib borishini tezlashtiruvchi omil sifatida asosiy ustuvorlik berildi.

Hozirda, Respublikada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha huquqiy baza yaratildi, investitsiyalarni jalb qilish va xorijiy investorlarga xizmat ko'rsatuvchi infrastruktura barpo qilindi .Buning samarasi o'laroq so'ngi yillarda investitsiyalar jalb qilish ko'lami tobora o'sib bormoqda.(2.1.1.-rasm)

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan o'zimizga xos iqtisodiy rivojlanish modeli bugungi kunda jahon jamoatchiligi tomonidan keng e'tirof etilmoqda. Bu model nafaqat o'rganilmoqda, balki bozor iqtisodiyotini qurayotgan aksariyat davlatlar uchun iqtisodiy rivojlanish bo'yicha strategik maqsadlarni aniqlash va ularga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda erishilgan yuqori sur'atli barqaror ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat, iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va qayta qurishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish hamda jadallashtirish natijasidir.



1.1 2007-2012 yillar davlat investitsiya dasturlari doirasida to'g'ridan to'g'ri xorijiy sarmoyalarni jalb qilish dinamikasi¹³

Valyuta sohasida «Valyutani tartibga solish» to'g'risidagi qonun qabul qilindi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining vazifalari qayta ko'rib chiqildi, va uning milliy valyutani konvertatsiyasi hamda import kontraktlarini ro'yxatdai o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan vazifalari bekor qilindi.

Xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlash va himoyalash maqsadida yaratilgan shart-sharoitlardan tashqari, Respublika tomonidan Adliya vazirligiga ularning manfaatlarini himoya qiluvchi davlat organi vakolati berildi. Chet el investorlari uchun eng o'ziga jalb etadigan soha sifatida neft-gaz, transport va aloqa tarmoqlari bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish borasida erishilgan yutuqlar Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuqori baholanmoqda.


¹³ Statistika ma'lumotlar asosida dissertant tomonidan tuzildi.

Mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining muvaffaqiyatlari yurtimizdagi siyosiy barqarorlik va islohotlarning izchil amalga oshirilishiga asoslangani yetakchi xalqaro ekspertlar tomonidan bir necha bor ta'kidlandi. Shuningdek, O'zbekiston 2013 yilda biznes uchun dunyodagi eng istiqbolli 20 davlat qatoriga qo'shilgan Markaziy Osiyodagi yagona davlat bo'ldi. Buyuk Britaniyaning Maplecroft konsalting kompaniyasi shu yil 5 dekabrda uzoq muddatli investitsiyalar jalb qilish uchun dunyodagi qulay mamlakatlarning navbatdagi reytingi haqidagi ma'ruzani nashr etdi. O'zbekiston ushbu reytingda dastlabki yigirmata davlat qatoriga kiritilgan. Ro'yxatda Xitoy, Hindiston, Braziliya, Janubiy Koreya va Malayziya yetakchilik qilmoqda. Maplecroft kompaniyasi tomonidan hisoblab chiqiladigan "Rivojlanib borayotgan bozorlar indeksi" biznes yuritish uchun istiqbolli bo'lgan 175 davlatni o'z ichiga olgan. Indeksda o'tgan yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlar, mamlakatning investitsiya sarflash uchun jozibadorligi, eng so'nggi tarkibiy islohotlar va demografik ahvol, shu jumladan o'rta sinf soni bo'yicha prognozlar e'tiborga olingan. Bu natijaning qayd etilishi bejiz emas, chunki O'zbekistonda yaratilgan qulay muhit jahon hajamiyatining e'tiboridan chetda qolayotgani yo'q. Bunga misol so'ngi yillarda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar sonining ortib borishidir. (2.1.3-rasm)

Shunisi e'tiborliki, bu ko'rsatkichlar xomashyo tarmoqlari, qulay kon'yunktura va jahon bozorida ayrim xomashyo turlari hamda materiallar narxining yuqoriligi hisobidan emas, balki muhim tarkibiy o'zgarishlar, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, faoliyati raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va zamonaviy xizmatlar ko'rsatishga yo'naltirilgan tarmoqlarni izchil rivojlantirish tufayli ta'minlanmoqda. Investitsiya iqtisodiyotda alohida o'rin egallab, so'ngi yillarda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning eksport salohiyati sezilarli o'zgarmoqda

Mamlakatimiz jahon iqtisodiyotida hamon davom etayotgan inqirozning salbiy oqibatlariga nafaqat ishonchli tarzda bardosh bermoqda, balki makroiqtisodiy muvozanatni, yuqori iqtisodiy va ijtimoiy o'sish sur'atlarini saqlashga erishmoqda.

Ayniqsa, investitsiya sohasida ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlar e'tiborga molik. Istiqlool yillarida mamlakatda samarali qonunchilik bazasi, xorijiy sarmoyadorlar uchun keng ko'lamli huquqiy kafolatlar va imtiyozlar majmui yaratildi, xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha yaxlit chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqildi. .



2.1.2 Hududlarda faoliyat olib borayotgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni.¹⁴

¹⁴ Sattorov Sh.Sh.Iqtisodiyot vazirligi. Taqdimot.2012 y.

O'zbekistonning xorijlik sheriklar bilan o'zaro manfaatli hamkorligi mamlakatda Chet ellik sarmoyadorlarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun barcha shart-sharoit yaratilganidan yorqin dalolat beradi. Bularning barchasi O'zbekistonga investitsiya muhiti eng jozibador yetakchi davlatlar qatoridan munosib joy egallash imkonini berdi. Buni Maplecroft kompaniyasi ekspertlari yana bir bor tasdiqladi.

2.2. Xorijiy investorlar uchun yaratilgan imtiyoz va preferensiyalar

Zamonaviy O'zbekiston–Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni hamda mintaqaning to'laqonli iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi yetakchi industrial davlat. O'zbekistonning zamonaviy iqtisodiyoti xorijiy investorlarga taqdim qilinayotgan afzalliklardan biri-siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik, tabiiy-iqlim sharoitining qulayligi, mexmondo'stlik va mehnatsevarlik hamda boshqalardir. Barcha afzalliklar sirasidan O'zbekistonda biznesni boshlashning muhim omillaridan biri bu - xom-ashyo bazasining ko'pligi, yirik mintaqaviy bozorlarning markazida qulay geografik joylashuvi, halqaro ahamiyatga ega bo'lgan yer va havo transporti tizimi, diversifikatsiyalashgan sanoat bazasi va Respublikaning ilmiy-intellektual, kadrlar salohiyatining mavjudligidir. Bundan tashqari investorlar uchun bir qancha imtiyoz va preferensiyalar berilgan. Soliq kodeksida investitsiyalarga doir quyidagicha imtiyozlar berilgan.

Yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 159-modda):

- asosiy ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish maqsadida foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruktsiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda ;

- ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihozlar xarid qilishga, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni uzishga, lizing ob'ekti qiymatining o'rnini qoplashga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirgan holda yo'naltirilgan mablag'lar summasiga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko'rsatib o'tilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan q'tiboran, texnologik jihozlar bo'yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologiya jihozlari ular olingan (import qilingan) paytdan e'tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi foydadan olinadigan soliqni to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda, imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun bekor qilinadi;

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 208-209,211-moddalar):

- mulkni realizatsiya qilish oborotlari, davlat mulkini privatizatsiya qilish tartib asosida;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va Chet el hukumat moliyatashkilotlari tomonidan berilgan qarzar (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

- investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida topshirilayotgan mol-mulk;

- moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) foiz tariqasidagi daromadiga tegishli qismi bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

- O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar,

shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni yetkazib berish texnologik asbob-uskunalarini yetkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi;

- investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari olib kiriladigan mol-mulk;

- bolalar poyabzali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Chet-el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar o'z ishlab-chiqarishida foydalanish uchun olib kirayotgan xom ashyo, materiallar va yarim mahsulot.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagilarning qiymatiga kamaytiriladi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 269-modda):

- kredit hisobidan olingan asbob-uskunaning, uni foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yilga, lekin kreditni uzish uchun belgilanganidan ko'p bo'lmagan muddatga;

- lizingga olingan mol-mulkning, lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga;

- ishlab chiqarishga yangi joriy etilgan yangi texnologik jihozlarning, besh yillik muddatga.

Yangi texnologik jihozlar olingan (import qilingan) paytdan e'tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki bepul berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi mol-mulk solig'ini to'lash majburiyatlari imtiyoz qo'llaniladigan butun davr uchun tiklangan holda, bekor qilinadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan quyidagilar ozod qilinadi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 269-modda):

- yangi tashkil etilgan korxonalar – davlat ro'yhatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida. Mazkur imtiyoz tugatilgan (qayta tashkil etilgan) korxonalarning ularga qarashli alohida va tarkibiy bo'linmalarning ishlab chiqarish quvvatlari xamda asosiy fondlari negizida tashkil etilgan korxonalarga, shuningdek korxonalar huzurida tashkil etilgan yuridik shaxslarga nisbatan, agar mazkur yuridik shaxslar ushbu korxonalardan ijaraga olingan asbob usksnalarda ishlayotgan bo'lsa, qo'llanilmaydi.

Boj undirishdan quyidagilar ozod qilinadi («Boj tarifi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 33-modda):

- davlat ro'yhatidan o'tkazilgan davrdan boshlab, ikki yul davomida Chet ellik investorlar va ustav fondida Chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarish extiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan mol-mulk;

- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga umumiy summasi ellik million AQSH dollaridan ziyod bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyani amalga oshirgan Chet ellik yuridik shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlar, basharti olib kiriladigan tovarlar ularning o'z ishlab chiqarish mahsuloti bo'lsa;

- mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlar olib borish uchun mo'ljallangan va loyiha hujjatlariga muvofiq mahsulot taqsimotiga oid bitm bo'yicha ishlarni bajarishda qatnashaetgan Chet ellik investor yoki boshqa shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan tovarlar, ishlar va xizmatlar, shuningdek investor tomonidan olib kiriladagan, mahsulot taqsimotiga oid bitimga muvofiq investorga tegishli bo'lgan mahsulot;

- O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanib ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik jihozlar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni yetkazib berish texnologik jixozlarni yetkazib berish konrtakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa. Import

qilingan texnologik jihoz olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida eksportga realizatsiya qilingan yoki bepul berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi imtiyozlar qo'llanilgan butun davr uchun boj to'lash majburiyatlari tiklangan holda bekor qilinadi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan va iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalar yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va obodonlashtirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilinadi. (O'zR Prezidentining 28.12.2010 y. PF-4261-son Farmoni)

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi:

- 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha - 3 yil muddatga;

- 3 milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha - 5 yil muddatga;

- 10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lganda - 7 yil muddatga.

Ushbu ko'rsatilgan soliq imtiyozlari quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:

- mazkur korxonalarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan tashqari, respublikaning barcha shahar va qishloq aholi joylashtirish;

- xorijiy investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni O'zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirish;

- korxonaning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 50 foizni tashkil etishi lozim;

- ushbu korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni kiritish;

- xorijiy investitsiyalarni erkin almashtiriladigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik uskuna tarzida qo'yish;

- mazkur imtiyozlarni qo'llanish muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadni korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo'naltirish.

Jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to'g'ridan -to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart - sharoitlar yaratish, shuningdek Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport -tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida 02.12.2008 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4059-sonli «Navoiy viloyatida erkin industrial -iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi. «**Navoiy**» erkin industrial – iqtisodiy zonada ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi sub'etklar ularga kiritilgan to'g'ridan–to'g'ri investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lgan taqdirda yer solig'i, mulk solig'i, daromad solig'i, obodonchilik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona soliq to'lovi (kichik korxonalar uchun), Respublika yo'l jamg'armasi va Respublika maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlardan ozod etiladi;

- 3 million yevrodan 10 million yevrogacha-7 yilga;

- 10 million yevrodan 30 million yevrogacha–10 yilga. Keyingi 5 yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi hajmi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida;

- 30 million yevrodan ortiq bo'ganda-15 yilga. Keyingi 10 yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi hajmi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida.

“**Angren**” maxsus industrial zonasi qatnashchilari quyidagilardan:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, ularning mol mulkiga solinadigan soliqni,

- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lashdan, kichik

korxonalar uchun yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan;

- respublikada ishlab chiqarilmaydigan, loyihalarni amalga oshirish doirasida "Angren" maxsus industrial zonasi hududiga Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha olib kiriladigan uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallar boj to'lovlari (bojxona yig'imlaridan tashqari) to'lashdan ozod qilinadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan imtiyozlar kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab 3 yildan 7 yilgacha muddatga beriladi, shu jumladan, ekvivalenti:

- 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha bo'lganda 3 yil muddatga;

- 3 million AQSH dollaridan ortib 10 million AQSH dollarigacha muddatda bo'lganda – 5 yil muddatga;

- 10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil muddatga beriladi.

Bunda soliqlar, bojxona to'lovlari va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar xorijiy investorlar tomonidan tashkil etilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga faqat aniq belgilangan muddatga beriladi va muddatsiz tusda bo'lishi mumkin emas. Qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar) beriladigan Chet ellik investorlar tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida investor bilan investitsiya shartnomasi tuziladi. Investitsiya shartnomasi investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiya faoliyati ob'ektlariga nisbatan xuquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi. Investitsiya shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo

vazirligi orqali O'zbekiston Respublikasi Hukumati hamda Chet ellik investor (investorlar) o'rtasida tuziladi. Investitsiya shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan Chet ellik investorga qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar) berilgan taqdirda majburiy tartibda tuziladi.

Bunday kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar) O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolatlari berishni, maxsus bojxona, soliq va to'lov rejimi yaratishni, loyihalarni amalga oshirish davlat monitoringini yuritishni, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga ko'maklashishni, investitsiya dasturiga kiritishni yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Investitsiya shartnomasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- investitsiyalar ob'ekti va hajmi;

- investitsiya shartnomasining amal qilish muddati va shartlari;

- investorning, shu jumladan investitsiyalash hajmi, ishlab chiqarishning muayyan hajmini ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sifatining kafolatlangan darajasi, o'zi ishlab chiqargan tovarlar eksporti va ko'rsatadigan xizmatlari hajmi, O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida jalb etiladigan kreditlarning qaytarilishini ta'minlash, atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlariga, mehnat qonunchiligiga va texnika xavfsizligiga rioya qilish, ishlab chiqarish faoliyatining boshqa sohalari bo'yicha xuquq va majburiyatlari;

- O'zbekiston Respublikasi Hukumatining, shu jumladan qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari berish bo'yicha xuquq va majburiyatlari;

- loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, pudrat ishlariga shartnomalar tuzish muddatlari, moliyalashtirish manbalari, loyihani amalga oshirish jadvallari,

investitsiya loyihasining amalga oshirilishini texnik nazorat qilish tartibi to'g'risidagi axborotlar;

-Chet ellik investor tomonidan uning majburiyatlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etish tartibi va muddatlari;

-tomonlarning investitsiya shartnomasi shartlariga rioya qilmaganligi uchun javobgarligi;

-o'zgartirishlar kiritish tartibi;

-investitsiya shartnomasining amal qilishini to'xtatish tartibi;

-investitsiya shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etish tartibi va ko'rib chiqish joyi.

Investitsiya shartnomasida investitsiya loyihasi xususiyatiga qarab boshqa shartlar, shu jumladan:

-tomonlarning mintaqaning ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha o'zaro majburiyatlari;

-investorning shartnomani bajarish natijasida o'ziga tegishli mahsulotni va olingan foydani (daromadlarni) O'zbekiston Respublikasidan Chetga chiqarish xuquqi;

-Chet ellik investorning O'zbekiston Respublikasi jismoniy shaxslari bo'lgan xodimlarni yollash va o'qitish bo'yicha majburiyatlari, texnologiyalardan foydalanish shartlari, shuningdek investorning investitsiya loyihasini amalga oshirish tugallangandan keyin tashkil etilgan tashkilotning xodimlarini o'qitish bo'yicha majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

Chet ellik investor investitsiya shartnomasini tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga quyidagilarni taqdim etadi:

-investitsiya shartnomasining loyihasi;

-qonun hujjatlarida belgilangan hollarda vakolatli organlarda ekspertizadan o'tkazilgan texnik-iqtisodiy asoslash (texnik-iqtisodiy hisoblash) asosida bajarilgan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar;

-investitsiya shartnomasi loyihasining xuquqiy ekspertizasi yuzasidan - Adliya vazirligining xulosasi;

-Chet ellik investorlarga va (yoki) tashkil etiladigan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonaga qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo'shimcha ravishda soliq solish bo'yicha imtiyozlar va preferentsiyalar berish yuzasidan - Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi xulosalari.

Zarurat bo'lganda, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Chet ellik investordan investitsiya shartnomasi loyihasini baholash bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha materiallarni so'rab olishi mumkin. Chet ellik investor tomonidan taqdim etilgan investitsiya shartnomasi loyihasi va boshqa materiallar investitsiya shartnomasi loyihasi olingan kundan boshlab o'n to'rt ish kuni mobaynida vakolatli organlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Zarurat bo'lgan taqdirda, investitsiya shartnomasi qoidalarini kelishib olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Chet ellik investor (investorlar) o'rtasida muzokaralar o'tkaziladi. Chet ellik investor hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan imzolangan investitsiya shartnomasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga uni tasdiqlash to'g'risida Hukumat qarorini qabul qilish uchun kiritiladi. Agar investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisobi) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'lsa investitsiya shartnomasini tasdiqlash to'g'risidagi tegishli band investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisobi)ni tasdiqlash haqidagi Hukumat qarori loyihasiga kiritilishi

mumkin. Agar investitsiya shartnomasida soliq hamda bojxona imtiyozlari va preferentsiyalari berish nazarda tutilsa bunday shartnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi. Chet ellik investor bilan investitsiya shartnomasi uni tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab kuchga kiradi, agar ushbu qarorda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa. Chet ellik investor investitsiya shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishi to'g'risida hisobotlar taqdim etadi. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi investitsiya shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarning Chet ellik investor tomonidan bajarilishini nazorat qiladi.

2.3. Investitsiyalar jalb qilishning istiqbolini belgilash jihatlari.

Erishilgan yutuqlar bilan birga bu borada to'siq va kamchiliklar mavjud. Buning yaqqol misoli bo'lib, mamlakatni investitsiya iqlimi holatini belgilaydigan asosiy ko'rsatkich bo'lgan, to'gridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining yetarli darajada ko'paymaganligini ko'rsatish mumkin.

Shu nuqtai nazardan ham xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini jonlantirish va bevosita xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

- Mamlakat investitsiya iqlimini yaxshilash va muammolar yechimini topish maqsadida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mutaxassislari, hududiy hokimliklarining mutaxassis vakillari, investitsiya imkoniyatiga ega bo'lgan yirik kompaniya va korxonalar rahbarlari hamda respublikaning investitsiyalar sohasidagi etuk olimlari ishtirokida, keng jamoatchilik o'rtasida ochiq muloqot tashkil qilinib, mavjud muammolar oshkoralik bilan har tomonlama muhokama etilishi lozim. Shu asosda masalaga keng jamoatchilik

fikrini jalb qilgan holda, mutaxassislar, olimlar va amaliyotchilar o`rtasida ilmiy va iqtisodiy asoslangan yagona investitsiya siyosatini, shuningdek, qabul qilingan qonun va qarorlarni amalda ishlash mexanizmini ishlab chiqish va hayotiylikini ta`minlash lozim.

- Investitsiyalar oqimiga (nafaqat xorijiy, balki ko`p tomonlama ichki investitsiyalar taalluqli) ta`sir qiluvchi omillardan biri sifatida marketing tadqiqotini zaif olib borilayotgani, natijada ko`plab ishlab chiqarilgan mahsulotlar omborlarda qoldiq bo`lib qolayotganligi ko`rsatilmoqda. Bu muammoni faqat investitsiyalarning o`ziga bog`liq, echimini izlamasdan, aholi va korxonalarning iste`mol qobiliyatini ko`tarish, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarga nisbatan sog`lom talab darajasini oshirish nuqtai nazaridan qaralishi maqsadga muvofiq bo`ladi.

- Korxonalarning moliyaviy ko`rsatkichlari hamda iqtisodiy indikatorlar haqida xolis va ishonchli axborot ta`minoti xamon yaxshi yo`lga qo`yilgani yo`q. Bu masalani hal qilish uchun muqobil va mustaqil nodavlat axborot agentlari tashkil qilinishi lozim.

Xorijiy investitsiyalarni mamlakatga jalb qilishda xuquqiy asoslarga taallukli xozirgi vazifa — bu xukumatning xorijiy investitsiyalar bo`yicha uzoq muddatli barkeror pozitsiyalarini shakllantirish va uni potentsial xorijiy investorlarga yetkazishdan iboratdir.

Mamlakatimiz ichki ehtiyojlariga to`liq javob beradigan iqtisodiyot tuzilmasini bosqichma-bosqich takomillashtirish, tabiiy-iqtisodiy resurslarimizdan oqilona va samarali foydalanishga asoslangan tashqi iqtisodiy faoliyat ko`lamini kengaytirish iqtisodiyotimizning yuqori sur`atlar bilan barqaror o`sishini va muvozanatlashgan makroiqtisodiy ko`rsatkichlarni ta`minlashning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Investitsiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya`ni neft` va ximiya sanoati, transport, energetika, er osti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga,

qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, xorijiy investorlarni o`z mablag`larini mamlakat iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan, jumladan:

- xorijiy investorlar kapitalini saqlanishi uchun kafolatlar;
- ko`rilgan zararlarni qoplanishi uchun kafolatlar;
- soliqqa tortish tizimida ularga oid belgilangan imtiyozlar;
- foyda va daromadlarni xorijga olib chiqib ketishning erkinligi;
- milliy so`mda va Chet el valyutasida olingan foydalarni o`tkazish va olib chiqib ketish imkoniyati;
- bojxona imtiyozlarining mavjudligi;
- xorijiy investorlarning mulklari va ularning o`zlarini xavf-xatarlardan sug`urtaviy muhofaza qilish tizimini yaratilganligi.
- Xorijiy korxonalarni tashkil etish orqali Chet el investitsiyalarini jalb qilish bugungi kunda kengayib bormoqta. O`zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning turli soxalarida tashkil etilishi mumkin. Yirik xorijiy kompaniya va korxonalar o`z mol - mulklari bir qismini ajratib, shu`ba korxonalar ochishi mumkin. Bunday shu`ba korxonalarga ham qo`shma korxonalarga qo`yilgan talablar belgilangan.
- Ikki yoki uchdan ortiq davlat yoki korxonalar o`z kapitallarini jamlagan holda halqaro tashkilotlar tashkil etishi mumkin.
- Kontsessiya shartnomalari - bu tabiiy boyliklarni, ayrim foydali qazilmalarni qazib olish va o`zlashtirish uchun tuzilgan shartnomalardir.

- Lizing shartnomasi esa Chet el investitsiyalari ishtirokida asbob - uskunalarni, texnika - texnologiyalarni uzoq muddatga ijaraga olish. Tenderlar esa tanlov asosida investorlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etilishidir. erkin iqtisodiy hudud - bu ma'lum hududda Chet el investitsiyalari erkin kirib kelishi va ularga nisbatan qator imtiyozlar belgilangan hududdir.

O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiyot hududlar to'g'risida"gi Qonunida erkin iqtisodiy hududga quyidagicha ta'rif berilgan: "Erkin iqtisodiy hududlar - mintaqani jadal ijtimoiy — iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va Chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir". erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish jarayonida davlat qo'llab - quvvatlovchi, rag'batlantiruvchi hamda nazorat qiluvchi sifatida bosh islohotchi bo'lishi lozim. Davlatning bosh iclohotchi sifatida qatnashishi xorijiy mamalakatalar tajribasida aniq namoyon bo'ladi, masalan, Xitoy hukumati 1 dollar Chet el inveestitsiyalarni jalb etish uchun 4 dollar o'z mablag'larini safarbar etgan. Natijada, milliy va asosan, xorijiy investorlar hududlarga investitsiyalar kirita boshlagan, bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotini rivoji uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. Rossiyada yaratilgan erkin iqtisodiy hududlarga Naxodka, Kaliningrad viloyati, Sankt - Peterburg shahari va boshqalar kiradi. Qozog'istondagi birinchi erkin iqtisodiy hududlar 1991 yilda paydo bo'lgan. Bular: Jezqozg'on viloyatdagi Jayren - Atasu, Kostanay viloyatdagi Lisakov va Olmaota shahardagi "Otakent" erkin iqtisodiy hududlaridir.

Moliyaviy aktivlar - bu qimmatli kog'ozlar bo'lib, u Chet el kapitalini jalb etish, Chet el kreditlarini olish va Chet el kapitalini bank depozitlariga jalb etish uchun emissiya qilinadi.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va Chet el investitsiyasini faol jalb etish uchun, nafaqat, hududlar balki, tarmoqlarda, shuningdek, investitsiya faoliyatining sub`ekti va ob`ektlarida ham investitsion jozibadorlik reytinglarini tahlil etib, hisoblab chiqish zarurdir. Bunda, asosan, Chet el investitsiyasini iqtisodiyot sohalari bo`yicha mutanosib jalb etishning kompleks dasturini ishlab chiqish va unda tarmoqlarni, asosan, 3 guruhga, ya`ni ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish va ijtimoiy sohalarga bo`lib, investitsiyani ustuvor darajada real sektorga yo`naltirib, so`ng qolgan sohalarni rivojlantirishga hamda iqtisodiyot rivojlanishi va zaruriyatidan kelib chiqib, xizmat ko`rsatish va ijtimoiy sohalarga ham jalb etilsa, maqsadga muvofiq bo`lur edi.

Rivojlangan mamlakatlar xalqaro kapital harakatini, asosan, kapital eksporti-importini milliy va xalqaro darajada ragbatlantirish orqali amalga oshiradilar. Kapitalning qarzlar, portfel' investitsiyalar va boshqalar shaklida harakat qilishi borasidagi davlat siyosati uning harakatidagi barcha cheklashlarni olib tashlash maqsadida olib boriladi. Barcha xorijiy investitsiyalargarga nisbatan davlat har qanday cheklashlarni amalga oshirish huquqini o`z zimmasida qoldiradi, chunki bu milliy iqtisodiy havfsizlik bilan bog`liq. SHunisi harakterliki, kapitalni Chetga chiqarish uni jalb qilishga nisbatan kam darajada tartibga solinib turiladi.

Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va xomashyoni chuqur qayta ishlaydigan tarmoqlar ulushini oshirish, yuqori qo`shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, sohalar raqobatbardoshligini kuchaytirish tashqi bozorlarda ko`plab tarmoqlarning mustahkam o`rin egallashini ta`minladi. So`nggi uch yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,3 barobar oshdi. Makroiqtisodiy ko`rsatkichlar barqarorligini, davlat byudjeti profitsitini saqlash va inflyatsiyani jilovlash mamlakatimiz iqtisodiyotida investitsiyalar hajmining 1,8 barobar, shu jumladan, xorijiy investitsiya va kreditlarning 2,4 barobar o`sishiga yordam berdi.

. Yuqori texnologik va raqobatbardosh mahsulotlar eksportini ko'paytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligining moddiy bazasini isloh qilish, ijtimoiy tarmoqni rivojlantirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimining zamonaviy bazasini mustahkamlash, tijorat banklari uchun kredit liniyalarini taqdim etish kelgusida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning asosiy yo'nalishlari bo'ladi

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.

- Xorijiy investitsiyalarni mamlakatga jalb qilishda xuquqiy asoslarga taallukli hozirgi vazifa — bu xukumatning xorijiy investitsiyalar bo'yicha uzoq muddatli barkaror pozitsiyalarini shakllantirish va uni potentsial xorijiy investorlarga yetkazishdan iboratdir.

- Mamlakatimiz ichki ehtiyojlariga to'liq javob beradigan iqtisodiyot tuzilmasini bosqichma-bosqich takomillashtirish, tabiiy-iqtisodiy resurslarimizdan oqilona va samarali foydalanishga asoslangan tashqi iqtisodiy faoliyat ko'lamini kengaytirish iqtisodiyotimizning yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishini va muvozanatlashgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ta'minlashning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi.

- Investitsiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya'ni neft' va ximiya sanoati, transport, energetika, er osti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

- Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, xorijiy investorlarni o'z mablag'larini mamlakat iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan

- Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga Chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi

III Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalar kirib kelishining foydalilik jihatlari va ularni takomillashtirish

Davlatimiz mustaqillikka erishgan yillardan boshlab, bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos iqtisodiy rivojlanish yo'lidan bormoqda. Bu yo'lda investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik, investitsiya muhitini juda qulayligixorijiy investorlar uzoq muddatli investitsiya loyihalarini tuzishda asos bo'lmoqda. Bundan tashqari, jalb etilgan chet el investitsiyalar va kreditlar uchun kafolatlar taqdim etish, soliq va bojxona ta'riflari bo'yicha imtiyozlar, zayom va foiz stavkalarini subsidiyalash kabi shart-sharoitlar yaratilmoqda, o'nlab qonuniy xujjatlar amal qilmoqda. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag'lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, turli xil risklarni, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo'l bilan respublika iqtisodiyotini ko'tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga, Chet el investitsiyalarining kirib kelishini a rag'batlantirish yo'li bilan investitsiyalarni, ko'proq, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan. Shu jihatdan O'zbekiston davlati o'z tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib bormoqda. Davlat tuzilmaviy investitsiya siyosatida yangi tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirish, aholining iste'mol tovarlari, ish joylarga bo'lgan talabini qisqa vaqt ichida yuqori darajada ta'minlashga erishish yo'lida quyidagi vazifalarga amal qilmoqda:

- Eskirgan ishlab chiqarishlarni sekin-asta muomaladan chiqarib tashlash;

-Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash;

-To'lov qobiliyatiga ega bo'lgan va talabga mos holda ishlab chiqarish tuzilmalarini yaratish;

-Ishlab chiqarish resurslaridan va ilmiy-texnika salohiyatidan imkon qadar yuqori darajada foydalanishni ta'minlash;

-Mamlakatning ekologik va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va uni kuchaytirish;

-Samarali, raqobatga asoslangan ishlab chiqarishlar, bozor infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish soxasi va intellektual faoliyatlar rivojlanishini uyg'unlashtirish;

-Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish va yangi tarmoqlarni barpo etish;

-Aholining ish bilan bandligini va hamda iqtisodiy faolligini oshirish;

-Hududlar ijtimoiy infratuzilmasini to'liq shakllantirish

Tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib borishda muhim strategiyalar ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning mohiyati kichik iqtisodiy sub'ektlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Mazkur ishlarni amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud, ya'ni:

Ulushi qo'shilib qatnashishi orqali qo'shimcha korxonalarni tashkil etish; 100% mol - mulk xorijiy investorlarga tegishli bo'lgan xorijiy korxonalarni tashkil etish; yirik xorijiy kompaniya va firmalarning shu'ba korxonalari va filiallarini tashkil etish; kontsessiya va lizing shartnomalari tuzish; tenderlar e'lon qilish; erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish; moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish.

Qo`shma korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish keng tarqalgan shakllaridan biri hamkorlikda qo`shma korxonalarni tashkil etishdir. O`zbekiston Respublikasida qo`shma korxona deganda, nizom kapitalining kamida 30 % xorijiy investorlarga tegishli bo`lgan va xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo`lgan, nizom kapitalining eng kam miqdori 150000 AQSH dollariga teng bo`lgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalarga aytiladi.<sup>12</sup> Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxona nizom jamg`armasining 150000 AQSH dollaridan kam • bo`lmasligi sifatsiz mahsulotlarining oldi - sotdisi va ularni respublikaga import qilish ishlari bilan shug`ullanishga ixtisoslashgan kichik qo`shma korxonalarning keragidan ortiqcha kirib kelishining oldini olish maqsadida belgilangan.

Xorijiy korxonalarni tashkil etish orqali Chet el investitsiyalarini jalb qilish bugungi kunda kengayib bormoqda. O`zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning turli soxalarida tashkil etilishi mumkin. Yirik xorijiy kompaniya va korxonalar o`z mol - mulklari bir qismini ajratib, shu`ba korxonalar ochishi mumkin. Bunday shu`ba korxonalarga ham qo`shma korxonalarga qo`yilgan talablar belgilangan.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va Chet el investitsiyasini faol jalb etish uchun, nafaqat, hududlar balki, tarmoqlarda, shuningdek, investitsiya faoliyatining sub`ekti va ob`ektlarida ham investitsion jozibadorlik reytinglarini tahlil etib, hisoblab chiqish zarurdir. Bunda, asosan, Chet el investitsiyasini iqtisodiyot sohalari bo`yicha mutanosib jalb etishning kompleks dasturini ishlab chiqish va unda tarmoqlarni, asosan, 3 guruhga, ya`ni ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish va ijtimoiy sohalarga bo`lib, investitsiyani ustuvor darajada real sektorga yo`naltirib, so`ng qolgan sohalarni rivojlantirishga hamda iqtisodiyot rivojlanishi va zaruriyatidan kelib chiqib, xizmat ko`rsatish va ijtimoiy sohalarga ham jalb etilsa, maqsadga muvofiq bo`lur edi.

Rivojlangan mamlakatlar xalqaro kapital harakatini, asosan, kapital eksporti-importini milliy va xalqaro darajada ragbatlantirish orqali amalga oshiradilar. Kapitalning qarzlar, portfel' investitsiyalar va boshqalar shaklida harakat qilishi borasidagi davlat siyosati uning harakatidagi barcha cheklashlarni olib tashlash maqsadida olib boriladi. Barcha xorijiy investitsiyalargarga nisbatan davlat har qanday cheklashlarni amalga oshirish huquqini o'z zimmasida qoldiradi, chunki bu milliy iqtisodiy havfsizlik bilan bog'liq. SHunisi harakterliki, kapitalni Chetga chiqarish uni jalb qilishga nisbatan kam darajada tartibga solinib turiladi.


Davlat tartibga solishning quyidagi usullaridan foydalanadi:

- 1) moliyaviy: jadallashtirilgan amortizatsiya; soliq imtiyozlari; subsidiyalar, qarzlar berish; kreditlarni sug'urtalash va kafolatlash;
- 2) nomoliyaviy: er uchastkalari ajratish; zaruriy infrastruktura bilan ta'minlash; texnik yordam ko'rsatish.

O'tgan yili yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etgan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining oshib borishi iqtisodiyot o'sishi barqaror yuqori sur'atlarining va uning tuzilmalarini diversifikatsiyalashning asosiy manbai bo'ldi. 11,7 milliard dollarga teng miqdorda yoki 2011-yildagiga qaraganda 14 foiz ko'p investitsiyalar jalb etildi. Barcha investitsiyalarning 22 foizdan ortig'ini yoki 2,5 milliard dollardan ortiqni xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ulardan 79 foizdan ortig'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Barcha investitsiyalarning 74 foizga yaqini ishlab chiqarish qurilishiga yo'naltirildi. 205 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish tugallandi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri

investitsiyalarning o`rni beqiyosdir. Bunda ilg`or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o`rinlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta`minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko`rsatadiki, Chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo`lgan. Quyida jadvalda ana shunday ko`rsatgichlardan biri bo`lgan jon boshiga to`g`ri keladigan investitsiya hajmining dinamikasini ko`rishingiz mumkin. (3.1.1-rasm)



3.1.1 Jon boshiga to`g`ri keladigan investitsiyalar hajmi¹⁵

¹⁵ Statistika ma'lumotlariga asosan dissertant tomonidan tuzildi.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatuvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga amaldagi soliqlar va bojlar yuzasidan qator engilliklar, imtiyozlar belgilangan. Ushbu imtiyozlarning amal qilishi bevosita mamlakatimizda yuritilayotgan investitsiya siyosatining asosiy negizlaridan birini tashkil etib, o'z ijobiy samarasini bermoqda. Masalan, Respublikamizda xorijiy investorlar o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkidan boj to'lovi olinmaydi, Respublika investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarga sarf etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari daromad (foyda) solig'idan 7 yil muddatga ozod etilgan, korxona jamg'armasida xorijiy investitsiya mablag'lari hissasi 50% va undan yuqori bo'lsa, ular 2 yil muddatga daromad (foyda) solig'idan ozod qilingan va boshqa soliq imtiyozlari belgilangan.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish hukumat tashqi iqtisodiy faoliyatini diqqat markazida bo'ldi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda hukumat quyidagi tamoyillarga asoslandi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat yuritish;
- respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'ni keng jalb etishni ta'minlaydigan huquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora

takomillashtirish;

- respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani etkazib berayotgan va iqtisodiyotni zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko`maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yurgizish;
- mablag`larni respublika mustaqilligini ta`minlaydigan, import o`rnini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog`liq bo`lgan eng muhim ustuvor yo`nalishda jamlash.

Shuningdek, respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyani jalb etishni faollashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- investitsiya loyihalarini malakali ekspertlar nazoratidan o`tkazish va mukammal tayyorlanishiga erishish;
- qo`shma korxonalar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi boshqa turdagi tadbirkorlik faoliyatini ro`yxatdan o`tkazishdagi to`siqlarni butunlay olib tashlash.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalarga jalb etishda quyidagi ustuvor yo`nalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

- qishloq xo`jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;
- mineral xom ashyo resurslarini, shu jumladan, neft' va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo`yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;
- transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilm talab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;
- turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga erishish.

O`zbekistonda xorijiy investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olgan foydalari va boshqa daromadlarini biror-bir cheklovlarsiz istalgancha Chet davlatga o`tkazish imkoniyati kafolatlanadi. Bundan tashqari xorijiy investorlar

Respublika banklarida hech bir cheklovlersiz istalgan valyutada hisob raqamiga ega bo'lishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyasi bo'lgan korxona amaldagi qonunlarga binoan o'zi ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksportga chiqarish va o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar importini amalga oshirish huquqiga egadir. Xorijiy investorlarga tabiiy boyliklarni qidirish, ishlab chiqarish va foydalanish va boshqa xo'jalik ishlarini yuritish uchun kontsessiyalar berilishi mumkin. Kontsession shartnomalar xorijiy investorlar bilan O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining vakil qilingan organlari o'rtasida tuziladi. O'zbekiston Respublikasida barpo etilayotgan korxonalar ustav sarmoyasiga xorijiy investorlarning hissasi sifatida yoki xorijiy xodimlarning o'z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan mulk bojxona to'lovidan ozod qilinadi va import solig'i undirilmaydi. Xorijiy investorlar O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning aktsiyalari, hissalarini va paylarini, shuningdek, yuridik shaxslar tomonidan chiqarilgan qimmatli qogozlarni sotib olishlari mumkin. Xorijiy investitsiyalari bo'lgan korxonadan chiqish yoki bunday korxonaning tugatilish hollarida xorijiy investorlar shu korxona mulkidan o'zining hissasini korxona mulki bilan qiymatiga mutanosib ravishda pul yoki natura tariqasida qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tuzilgan korxonalarning xo'jalik ishlarida hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining 'qonunchiligi asosida olib borilishi lozim. Bu holatlar ham qonunda ko'rsatilgan. Bu korxonalar bankrot holatiga tushib qolganda u o'z mulki, ya'ni savdo ob'ektlari, xizmat ko'rsatish sohalari, er uchastkasi, binolari, qurilishlari, uskunalaridan kelib chiqib majburiyatlari ta'minlanadi. Erdan foydalanish va egalik qilish huquqi bundan mustasno.

Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan shart-sharoitlar xalqaro shartnoma va xorijiy investorlar bilan kelishuvlarda ko'rsatilgan shart-sharoitlar farq qilsa, xalqaro shartnoma va kelishuvga asosan faoliyat yurgiziladi.

SHunday qilib, yaratilgan huquqiy asoslar xorijiy hamkorlarning keng investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratib, ularning huquqlari va sarflagan investitsiyasini himoya qiladi.

Hozirga kelib, O'zbekiston hududida xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni asosan nihoyasiga etkazildi va amalda qo'llanilmokda. Bu faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning quyidagi tizimi ishlab chiqilgan:

- xususiylashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning qatnashishi;
- texnikaviy qayta qurollanish;
- xalq iste'moli va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish.

O'zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalarni milliyashtirish va rekvizitsiya qilinmasligiga kafolat beradi. Xorijiy investitsiyalar faqat favqulodda holatlarda, avariya, epidemiya tarqalgan vaqtlarda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan rekvizitsiya qilinishi mumkin. Bu holat investorga ko'rsatilgan zarar miqdorida kompensatsiya qilanadi.

Xorijiy investorlarga uchun zarur moliyaviy-iqtisodiy kafolatlarni ta'minlash uchun hukumat tomonidan xorijiy investorlarni himoyalashning Milliy sugurta jamg'armasini barpo etish to'g'risida qaror qabul qilingan. Bu jamg'arma respublika hududida ta'sis etilgan Chet el banklarida O'zbekiston Respublikasi, xorijiy investitsiya ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari valyuta qadriyatlarining bir qismini deponentlash yo'li bilan hosil qilinadi.

Xorijiy investorlarning qonuniy faoliyatlari orqali qilingan daromadlari xorijiy valyutada, chegaralanmagan miqdorda chegaradan olib o'tishlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatining rivojlanib borishi, foyda olishning turli yo'llarini amalga tatbiq etishga olib kelmoqda. Agarda avval korxonalarda asosiy daromad o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotni

sotishdan iborat bo`ladigan bo`lsa, bozor munosabatlari rivojlanayotgan hozirgi sharoitda investitsiya va moliyaviy daromad olishga kengroq e`tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda investor oldida turgan asosiy maqsad optimal investitsiya portfelini shakllantirish bo`lib, uning ushbu portfel tarkibiga kiruvchiga investitsiya qimmatliklarini, boshqacha aytganda, investtsiya mulk ob`ektlarini qanday joylashtirishi ham muhim hisoblanadi. Bozor munosabatlari rivojlanayotgan bugungi kunda investorning o`z mulkini faqat korxonaning muomalaviy faoliyatiga emas, shuningdek investitsiya faoliyatiga ham yo`naltirilganligi, oxir-oqibatda, investor olayotgan daromadning oshishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda investor mulkini qaysi faoliyatga biriktirishi ham muhim masalalar qatoriga kiradi. Jumladan, investor mulki tarkibida bo`lgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa mulklari investitsiya jarayonlariga ko`proq jalb qilinsa, uning oladigan daromadi yanada oshishi mumkin. Investitsiya faoliyatining vositasi hisoblangan mulk barcha ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishlarda ishlab chiqarish munosabatlarining asosini tashkil etib, ularning xususiyatlarini belgilab beradi. Har bir ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishda mulkchilik turli xil ijtimoiy munosabatlarda rivojlangan bo`lib, mulkchilikni tavsiflanganda uning iqtisodiy mazmunini hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri qo`shma korxonalar hisoblanadi. Qo`shma korxonalar tashkil etish korxona va tashkilotlarning Chet ellik sheriklar bilan aloqasini yuksaltiradi, mamlakat hududida xorijlik tadbirkorliklarga keng sharoit yaratadi, mamlakat hududiga xorijiy investitsiyalarini jalb etadi. Bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishning asosiy omillaridan biri bu qo`shma tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo`l ochib berilishidir. Hozirgi kunda xorijlik ishbilarmonlar O`zbekistonni o`zlari uchun qulay va ishonchli sherik deb hisoblaydilar, chunki respublikamizda xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratildi. Natijada ularda o`z sarmoyalarini respublikamizda

joylashtirish va biz bilan hamkorlik qilish istagi ortib boryapti. Respublikamizda yaratilgan qulay investitsion muhitning asosiy omillari - respublikamizdagi qulay siyosiy barqarorlik, boy xom-ashyo resurslarining mavjudligi, qo`shma tadbirkorlikning huquqiy asosi yaratilganligidir.

Qo`shma korxonalar tashkil etishning zarurati, tovar ishlab chiqarishni ko`paytirishga sezilarli hissa qo`shadi va xalqaro savdo uyushmasiga tovar almashinuvi va keng xalq iste`moli tovarlari ishlab chiqarish uchun qulay sharoitlar yaroatadi. Qo`shma korxonalarning tashkil etilishi mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishni jadallashtiradi va xalqaro doirada mavqei ortishiga olib keladi. Qo`shma korxonalarning ahamiyatli tomoni olingan foydani taqsimlash, sarfni qoplash, korxona faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishdadir. Chet el investitsiyalarini respublikamiz iqtisodiyotiga jalb etish to`g`risidagi qonun-hujjatlariga binoan, korxonaning nizom fondiga ta`sischilarning o`z ulushi bo`yicha ishtirok etishi, korxonalarning mulki, aktsiyasi va boshqa turdagi qog`ozlarni sotib olishi, mahalliy fuqarolar bilan birgalikda yoki mustaqil ravishda erlarni sotib olish ko`rinishlarida ko`proq jalb etilmoqda.

Qo`shma korxonalar tashkil etish – bu murakkab jarayon hisoblanadi. Bu erda hamkorlar tanlanadi, ular orasida ushbu masalalar yuzasidan muzokaralar olib boriladi. Muzokaralarda tomonlarning asosiy qarashlari aniqlanadi, oldindan olib borilgan muzokaralar bosqichida kelgusidagi maqsadlar kelishib olinadi va ular shartnomalarda rasmiylashtiriladi.

Respublikada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish birinchi navbatda davlatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirish maqsadlarini ko`zlaydi. Respublika qonun hujjatlariga muvofiq Chet el investitsiyalari milliyashtirilishi, davlat tasarrufiga olinishi mumkin emas. Chet el investitsiyalari tabiiy ofatlar, falokatlar, epidemiyalar hollarini mustasno qilganda, rikvizitsiya qilinmaydi. Chet el investorlarga qonuniy

faoliyat natijasida olingan o'z foydasi va boshqa mablag'larini Chet el valyutasida Chetga o'tkazish kafolatlanadi. Qonun hujjatlarida Chet ellik investorlarga ularning davlat boshqaruvining vakolatli organlari bilan tuzadigan kontsessiya shartnomalari asosida tabiiy resurslarni qidirish, foydalanishga tayyorlash va foydalanish hamda boshqa xo'jalik faoliyatini joriy qilish uchun kontsessiyalar berish nazarda tutilgan. Respublika qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan faoliyatning hamma sohalari va turlari bo'yicha kontsessiya berilishi mumkin. Chet ellik investor qarori bilan investitsiyalarga hamda ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, tasarruf etish huquqi respublika qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga berilishi mumkin.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirishni muhim shartlaridan biri muomalada bo'lgan pul birligini qadrsizlanishini oldini olishdir. Investitsiya faoliyatidan olinadigan samarani ko'paytirish maqsadida investitsiyalar hajmini, yo'nalishlarini va manbalarini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. SHu bilan birgalikda yangi moliyalashtirish, kredit bilan ta'minlash, bahoni tahlil qilish, soliqqa tortish tizimlarini takomillashtirishdir. SHuni ta'kidlab o'tish joizki, investitsiya faoliyatini tartibga solishda eng muhim va asosiy muammolardan biri Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni respublika mintaqalari bo'ylab bir tekis joylashtirishdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va Chet el investitsiyalarini jalb qilishning kengayib borishi darajasiga qarab investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, bevosita Chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga hamda qo'shma korxonalarga jalb etishga qaratilishi lozim. SHuningdek, tartibga solish xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilishni ham nazarda tutishi kerak. Bunda Chet el investitsiyalarining oqib kirishini rag'batlantirish, shu bilan birga milliy iqtisodiyot sub'ektlarining bu faoliyatda ishtirok etishini taqdirlash muhim o'rinda turadi. SHunday qilib

davlat tomonidan investitsiya munosabatlarini tartibga solishning vazifasi, bir tomondan, bevosita Chet el investitsiyalari oqimini oshirishdan, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotdagi xususiy mulkchilik sub`ektlarining qo`yilmalarini kengaytirishdan iborat bo`ladi.

O`zbekiston Respublikasida Chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan shug`ullanadigan rasmiy muassasalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

3.1.2 O`zbekiston Respublikasida Chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan shug`ullanadigan rasmiy muassasalar¹⁶

1.	Vazirlar Mahkamasining tashqi iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish departamenti	Quyidagi joriy jarayonlarni muvofiqlashtiradi: -investitsiya faoliyatini, birinchi navbatda Chet el investitsiyalari bilan amalga oshiriladigan loyihalarni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash bo`yicha zarur hukumat qarorlarini ishlab chiqish; -davlat boshqaruvi idoralari, vazirliklar va idoralar ishini tashkil etish.
2.	Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi	Korxonalarni tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tarzida ro`yxatga olish va xorijiy kompaniyalar vakolatxonalarini akkreditatsiyalash-Mamlakat va xorij investorlarining investitsiya takliflari to`g`risida ma`lumotlar bankini shakllantirish; -investitsiya muhitini o`rganish;  -xorijiy investorlarga axborot va boshqa xizmatlar ko`rsatish;

¹⁶ Imomov H.H. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.O`quv qo`llanma.TDIU.2011 y.

		-investitsiya loyihalarini amalga oshirishda mamlakat va xorij investorlariga yordam ko`rsatish;</p> <p>-Chet el kapitali ishtirokida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining bajarilishini kuzatish (monitoring);</p> <p>-xorijiy investorlarga davlat ro`yxatidan o`tilganidan keyin yuridik shaxs sifatida faoliyat ko`rsatishida yordam berish (tovar ishla' chiqaruvchilar palatasi bilan hamkorlikda).
3.	Davlat Mulki Qo`mitasi	Davlatga tegishli mulkni xususiylashtirish va tasarruf etish jarayonlarida Chet el investitsiyalarini tartibga solish.
4.	Moliya Vazirligi	Qarz siyosati va hukumat kafolatlarini berish.
5.	Adliya Vazirligi	Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni ro`yxatga olish.
6.	Tashqi ishlar vazirligi	Xorijiy investorlarga va O`zbekistonda ishlayotgan ajnabiy fuqarolarga vizalar berish.
7.	Ichki ishlar vazirligi	Xorijiy investorlarni va O`zbekistonda ishlayotgan ajnabiy fuqarolarni turar joyi bo`yicha ro`yxatga olish.
8.	Davlat soliq qo`mitasi	Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va ularning bojxona bilan bog`liq faoliyatini tartibga solish

9.	Markaziy bank	Konvertatsiya tartib-qoidalarini, shuningdek, uning o`tkazilishini, valyuta mablag`laridan foydalanishni tartibga solish, qarz siyosati.
10.	Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bank	Tashqi iqtisodiy faoliyatga bank xizmati ko`rsatish va loyihani moliyalashni amalga oshirish.
11.	«O`zbekinvest» davlat sug`urta kompaniyasi va «O`zbekinvest-inteneyshnl» qo`shma korxonasi	Chet el investitsiyalarini investitsiya tavakkalchiligidan sug`urtalash
12.	«O`zbekinvestloyiha» milliy injiniring kompaniyasi	Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslamani va investitsiya loyihalari texnik-iqtisodiy asoslamalarini tayyorlash
13.	Davlat mulki qo`mitasi huzuridagi qimmatli qog`ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi	Qimmatli qog`ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, nazorat qilish va tartibga solish sohalarida davlat siyosatini amalga oshirish. Mamlakat va xorijiy emitentlarning qimmatli qog`ozlarini sotib olish orqali majmua investitsiyalarini amalga oshirish.

Xorijiy investorlar bilan qo`shma korxonalar tashkil qilish mamlakatimizga:

— yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb qilish, ularni ishlab chiqarishga joriy qilish esa necha yillar davomida

sifatsiz, xaridor talabiga javob bera olmaydigan maxsulotlar ishlab chiqaruvchi eski texnikalardan tezroq qutilish imkonini beradi;

—yangi ish joylari tashkil qilish va axolining ishsiz qismini ish bilan ta`minlash, shu bilan birga, xorijning ilg'or boshqaruv tajribasini joriy qilish imkonini beradi va shu orqali mexnat unumdorligi oshiriladi;

—jahon bozorida rakobatlasha oladigan sifatli maxsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport kilish evaziga mamlakatga qadri baland valyutalarning ko'proq kirib kelishini ta`minlaydi.

Yuqori texnik saviyadagi tayyor maxsulotlar ulushi oshirilishi kuyidagi jixatlarga bog`liq:

— xorijiy mamlakatlardagi korxonalar bilan O`zbekistondagi eksport kiluvchi korxonalar urtasida kooperatsiya alokalarining shakllanishiga kumaklashish;

—yukori texnologiya va ilm talab kiluvchi maxsulotlar ishlab chikarilishi soxa va soxa ichi tizimi yaxshilanishiga xizmat kiladi;

—eksportning intellektual mulk ob`ektlari litsenziyalarini xamda nou-xau shaklida texnik-tijorat sirlarini sotish, injiniring va lizing soxalarida xizmatlar kursatish kabi turlarini rivojlantirish yuli bilan respublikamizda erishilgan ilmiy-texnik yutuklarining jahon xo`jaligi aylanmasiga kirib borishini tezlashtirish;

—ilmiy ishlanmalarga, xususan, amaliy fan va texnologiyalar transferti soxasidagi ilmiy ishlanmalarga bozor yunalishini beruvchi shart-sharoit yaratuvchi innovatsiyalarni qullab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chikish;

- innovatsiya jarayonini davlat tomonidan va tijorat usulida kullab-kuvvatlashning eng makbul uygunlashuvi asosiy yullarini belgilab olish xamda ilmiy-texnik ishlanmalarni tijorat ahamiyatiga molik natijalar darajasigacha etkazish;

- o'zbek olimlari va mutaxassislarining Chet eldagi etakchi institutlar,

tashkilotlar va firmalar bilan hamkorligini kengaytirish va chukurlashtirish;

-yuqori darajali marketing tadqiqotlari o'tkazish, tijorat va texnologiya menejmenti soxasidagi yutuqlarni o'rganish, xorijiy bozorlarning kon'yunkturasi, sig'imi xamda raqobatchilarning narx siyosati, qo'shma korxonalar tashkil etish bo'yicha hamkorlar qidirish yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni o'rganish.

Investitsiyalarni mamlakatga jalb qilishda xuquqiy asoslarga taallukli xozirgi vazifa — bu xukumatning xorijiy investitsiyalar bo'yicha uzok, muddat-li barkaror pozitsiyalarini shakllantirish va uni potentsial xorijiy investorlarga yetkazishdan iboratdir. Bundan tashqari investitsiyalardan respublika iqtisodiyotining muayyan tarmoqlari va mintaqalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlari va strategik vazifalarini ta'minlashda tartibga soluvchi instrument sifatida foydalanilmoqda .Investitsiyalardan respublikada mintaqaviy rivojlanishning muvozanatligini ta'minlashda foydalanishning asosiy sharti - mazkur investitsiyalarni har bir mintaqaning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib taqsimlash va yo'naltirishdir. Buning uchun har bir mintaqaning tabiiy boyliklari, yer-suv zaxiralari, xom-ashyo bazasi, iqtisodiy ixtisoslashuvi, sanoat bazasi va h.k.lar maxsus metodikalar asosida baholanishi lozim.

Quyida respublikadagi yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari mutaxassis olimlari bilan birgalikda, mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy saloxiyatini aniq hisobga olgan xolda har bir mintaq uchun ishlab chiqilgan investitsiyalarni jalb etishning ustivor yo'nalishlarini keltiriladi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi

- neft-gaz soxasi, kimyo, gaz-kimyo, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, metallurgiya sanoati, to'qimachilik sanoati.

Andijon viloyati uchun:

- avtomobilsozlik, mashinasozlik, elektrotexnika sanoati, to'qimachilik sanoati, parrandachilik, sanoat klasterlari tashkil etish, Xitoy davlatiga yo'l qurish loyixasini amalga oshirish.

Buxoro viloyati uchun:

- Qorako'lchilik, turizmni rivojlantirish, gaz, neftni qayta ishlash, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, to'qimachilik sanoati, poyafzal ishlab chiqarish, gilam ishlab chiqarish, farmasevtika sanoati, parrandachilik, jun-terini qayta ishlash sanoati, yog'-moy sanoati.

Jizzax viloyati uchun:

- ekoturizmni rivojlantirish, tog'-kon sanoati, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, to'qimachilik sanoati, go'shtni qayta ishlash, baliq yetishtirish, meva-sabzavotlarni qayta ishlash.

Qashqadaryo viloyati uchun:

- intensiv bog'lar tashkil etish, tarixiy turizmni kengaytirish, neftgaz soxasi, gazni qayta ishlash, kimyo sanoati, to'qimachilik va poyafzal sanoati, sut-go'shtni qayta ishlash.

Navoiy viloyati uchun:

- sanoat klasterlari tashkil etish, tilla qazib olish, kimyo sanoati, mashinasozlik, qurilish materiallarini ishlab chiqarish.

Namangan viloyati uchun:

- yangi texnologiyalar asosida issiqxonalarda eksportbop meva-sabzavotlarni yetishtirish, paxtani qayta ishlash sanoati, ipak sanoati, mashinasozlik, oziq-ovqat sanoati.

Samarqand viloyati uchun:

- turizmni rivojlantirish, mebel ishlab chiqarishni kengaytirish, yengil sanoat, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, elektrotexnika sanoati, tamaki sanoati, oziq-ovqat sanoati.

Surxondaryo viloyati uchun:

- erta pishadigan eksportbop meva-sabzavotlarni yetishtirish, neftgaz sanoati, sement ishlab chiqarish, ko'mir sanoati, to'qimachilik sanoati.

Sirdaryo viloyati uchun:

- baliqchilik, elektroenergetika sanoati, to'qimachilik sanoati, oziq-ovqat ishlab chiqarish.

Toshkent viloyati uchun:

- rekrasion zonalarini rivojlantirish, tog'-kon sanoati, sellyuloza-qog'oz sanoati, rangli metallurgiya, qora metallurgiya, ko'mir sanoati, elektrotexnika sanoati, kimyo sanoati, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, oziq-ovqat sanoati.

Farg'ona viloyati uchun:

- issiqxonalarda eksportbop meva-sabzavotlarni yetishtirish, intensiv bog'lar tashkil etish, rekrasion zonalarini rivojlantirish, neft sanoati, kimyo sanoati, mashinasozlik, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, ipak xomashyosini chuqur qayta ishlash, poyafzal sanoati, mebel sanoati, oziq-ovqat sanoati.

Xorazm viloyati uchun:


- turizm sohasini rivojlantirish, yog'-moy sanoati, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish, qurilish materiallarini ishlab chiqarish.

Toshkent shahri uchun:

- turizmni rivojlantirish, mashinasozlik, elektrotexnika sanoati, aviasiya sanoati, biokimyoviy va farmasevtika sanoati, mebel sanoati, shisha sanoati, oziq-ovqat sanoati, qog'oz sanoati.

Investitsiyalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan kurollanish, ilmiy texnik, ishlab chiqarish va aqliy imkoniyatlarini tiklashning asosiy vositadir. Aynan xorijiy investitsiyalar orqali milliy iqtisodiyot jonlanib, ishlab chiqarishda zamonaviy raqobatdoshlar tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashib

boriladi. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarining ochilishi va mamlakatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarining hal bo'lishiga olib kelad



3.1.1 Hududlarda faoliyat yuritayotgan xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar soni¹⁷

Xalqaro moliya institutlari bilan xamkorligimiz faol rivojlanmokda. Ta'lim, sog'likni saqlash, qishloq va suv xo'jaligi hamda moliyaviy resurslarni boshqarish sohalarida strategik loyihalarni amalga oshirish uchun o'tgan yili qariyb 330 million dollar mikdorida imtiyozli kreditlar va 46 million dollarlik grantlar jalb etildi. Investitsiya va sarmoyalar haqida gap borganda, bir muhim masalaga aloxida tuxtalib utishni zarur. Bugun joylarda iqtisodiyotni yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jixozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruktsiya qilish xorijiy sarmoyalarni jalb

¹⁷ Statistika ma'lumotlari asosida dissertant tomonidan tuzildi.

kilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat kursatish soxasi va kasanachilikni rivojlantirish nechoglik katta, xal kiluvchi ahamiyatga ega ekanini kimgadir isbot kilib berishga xojat yuk. Bu avvalambor, axolii bandligi, uning ish xaki va daromadini oshirish, bu oxir-okibatda respublikamiz hududlari, shahar va tumanlarimizdagi eng muxim ijtimoiy muamolarni echish demakdir.

Bu esa uz navbatida xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun kulay investstsiion muxit barpo etish shartlarining ayrimlarini uz ichiga oladi.Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy jarayonlar xisoblanib, jahon bozori bilan uzaro yakin va tulik bog`liqlikda buladi.SHu nuktai-nazardan u kupgina iqtisodiy jarayonlarni uzida kamrab oladi.Xorijiy investitsiyalar bozor munosabatlariga utayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini tarkibiy kayta qurish sur`atlarini tezlashtirish imkonini beradi. eng muhim yunalish sifatida xorijiy investitsiyalarni jalb etishni o`z ichiga olgan investitsiya faoliyatining jadallashuvi bugungi kunda o`tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar uchun ayni muddao. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish u yoki bu mamlakatda olib borilayotgan siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy islohatlarga bog`liq.

Jahon tajribasi shuni ko`rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning to'tgan o`rni, salmog`i mazkur davlatdagi investitsion muxitning qanchalik qulayligini belgilaydi. Bu muhit ko`p jixatdan xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat olib borayotgan siyosatini va tashqi iqtisodiy faoliyatining davlat tomonidan tartibga solishining xususiyatlari bilan baholanadi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

- yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb qilish, ularni ishlab chiqarishga joriy qilish esa necha yillar

davomida sifatsiz, xaridor talabiga javob bera olmaydigan maxsulotlar ishlab chiqaruvchi eski texnikalardan tezroq qutilish imkonini beradi;

- .yangi ish joylari tashkil qilish va axolining ishsiz qismini ish bilan ta'minlash, shu bilan birga, xorijning ilg'or boshqaruv tajribasini joriy qilish imkonini beradi va shu orqali mexnat unumdorligi oshiriladi;
- jahon bozorida rakobatlasha oladigan sifatli maxsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport kilish evaziga mamlakatga kadri baland valyutalarning ko'proq kirib kelishini ta'minlaydi.
- Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va Chet el investitsiyasini faol jalb etish uchun, nafaqat, hududlar balki, tarmoqlarda, shuningdek, investitsiya faoliyatining sub`ekti va ob`ektlarida ham investitsion jozibadorlik reytinglarini tahlil etib, hisoblab chiqish zarurdir.
- O`zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning turli soxalarida tashkil etilishi mumkin. Yirik xorijiy kompaniya va korxonalar o`z mol - mulklari bir qismini ajratib, shu`ba korxonalar ochishi mumkin. Bunday shu`ba korxonalarga ham qo`shma korxonalarga qo`yilgan talablar belgilangan.

Xulosa

Mamlakatimiz davlat investitsiya siyosati uzoq muddatli istiqbolga moljallangan bo'lib, investorlarning samarali ishlashi uchun zarur barcha sharoitni yaratib berishga qaratilgan. O'zbekistonning geografik jihatdan qulay yerda joylashgani, transport tarmog'ining rivojlangani, tabiiy resurslarning ko'pligi, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmaning yuqori darajada taraqqiy etgani, malakali kadrlarning mavjudligi va boshqa omillar investorlarga kelajakka ishonch bilan qarash imkonini bermoqda. Hozirgi kunda xorijlik ishbilarmonlar O'zbekistonni o'zlari uchun qulay va ishonchli sherik deb hisoblaydilar, chunki respublikamizda xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratildi. Natijada ularda o'z sarmoyalarini respublikamizda joylashtirish va biz bilan hamkorlik qilish istagi ortib boryapti. Respublikamizda yaratilgan qulay investitsion muhitning asosiy omillari - respublikamizdagi qulay siyosiy barqarorlik, boy xom-ashyo resurslarining mavjudligi, qo'shma tadbirkorlikning huquqiy asosi yaratilganligidir.

Tadqiqot natijalari doirasida quyidagi xulosa va takliflar asoslanadi:

1. Mamlakatning ayrim mintaqalarida ijtimoiy va ekologiya muammolarini hal qilishga qaratilgan investitsiyalarga yordam berish. Bunday hal etilgan muammolar ushbu investitsiya ketidan boshqa investitsiyalarni ergashtira oladi.

2. Respublikaga jahon darajasidagi texnologiyalarni yetkazib beradigan va iqtisodiyotning zamonaviy tuzilishini vujudga keltirishga yordam beradigan investorlar uchun ochik eshiklar siyosatini izchillik bilan amalga oshirish lozim.

3. Ishlab chiqarish bilan bog'liq loyixalarga qaratilgan valyutada o'zini-o'zi qoplashni ta'minlaydigan investitsiyalarga ko'maklashish;

4. Mamlakatning kredit qobiliyatini, O'zbekistonning birinchi darajali qarz beruvchi mamlakat sifatidagi obro'-e'tiborini qo'llab-quvvatlash lozim. Chunki xorij sarmoyadorlari juda katta miqdorlarda qisqa va uzoq muddatli bank kreditlariga extiyoj sezishadi. Afsuski hozirda ko'pchilik qo'shma korxonalar chet el banklari kreditlaridan foydalanmoqda.

5. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo'l qo'ymaslik zarur.

6. Mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini aniq hisobga olgan xolda har bir mintaqa uchun ishlab chiqilgan investitsiyalarni jalb etishning ustivor yo'nalishlarini belgilab olish zarur.

7. Investitsiyalar jalb qilishda faqat Janubiy Koreya mamlakati bilan cheklanib qolmaslik zarur.

8. Valyuta sohasini yanada isloh qilish orqali chet el valyutalarining qora bozor va davlat kursi orasidagi farqni maksimal darajada qisqartirish. Shundagina valyutaning erkin almashinuvi natijasida valyuta kirimi ko'payadi.

9. Qonunchilik tizimining isloh qilinishi natijasida qonun hujjatlarining soni ortib bormoqda va chet ellik investorlar uchun noqulaylik tug'dirmoqda. Xorijiy investitsiyalar bilan qonun hujjatlarini umumlashtirib, aniq va tushunarli tarzda soddalashtirish zarur.

10. Hozirgi bosqichda mablag'lar etishmovchiligini hisobga olib, nodavlat investitsiya manbalarini topish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish va moliyalashtirishda hali hal qilinishi zarur bo'lgan qator vazifalar borki, ular mavjud qonun va me'yoriy hujjatlardan to'g'ri foydalanadigan, va umuman investitsiyalardan samarali foydalanish bo'yicha kadrlarni tayyorlash ular malakasini muntazam oshirishni talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2003.-32 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi 1998 yil 30 apreldagi Qonuni. O'zbekistonning yangi Qonunlari, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi 1998 yil 30 apreldagi Qonuni. O'zbekistonning yangi Qonunlari, 1998.
4. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida" gi 1998yil 24 dekabrda qonuni. № 719-1 O'zbekistonning yangi qonunlari, 1998,
5. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining yangi taxriri., O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami, 2007 y., 12 dekabrda 52(I)-son.

II.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2005 yil 11 aprel.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida. 2006 yil 26 aprel.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2007 yil 7 noyabr.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 06.02.2007 y. PF-3850-son Farmoni

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Navoiy vilotida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida farmoni // Xalq so'zi, 2008 yil 4 dekabr.

11. 2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada islox qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" PQ-1438-sonli Qarori. 26.11.2010 y.

12. "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" PQ-1442-sonli Qarori 15.12.2010 y.

III.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi Qarorlari

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 14 aprel 2001 yildagi "Korxonalar investision faolligini rag'batlantirish chora-tadbirlari haqida"gi 184-sonli Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. "2011 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida". 2012 yil 13 fevral.

IV.Prezident asarlari va ma'ruzalari

15. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. - T: O'zbekiston, 2009. - 56 b.

16. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.

17. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009. - 24 b.

18. I.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.-T.: O'zbekiston, 2010.-77 b

19. A.Karimov "Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizasiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". - T.: "O'zbekiston" 18.01.2013 yil.

V.Sohaga oid me'yoriy hujjatlar

20. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o'rinbosarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchilari, tuman va shahar hokimlarining mintaqaviy seminarlari materiallari, 14 yanvar-1 fevral 2009 yil.

21. O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Markaziy banki hamda Xalqaro Valyuta Jamg'armasining qo'shma bayonoti // Xalq so'zi, 2008 yil 25 dekabr.

VI.Asosiy adabiyotlar

22. Shodmonov Sh.Sh., Gafurov U.V. Globallashuv jarayoni va moliyaviy inqiroz sabablari. // Adolat, 2009 yil 27 fevral.

23. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: "Sharq" nashriyoti, 2007.

24. G'ozibekov D. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.-T.: Mehnat, 2003 yil. 334 b.
25. Bodi, Zi, Keyn, Aleks, Markus, Alan. Prinsipi investisiy, 4-e izdanie.: Per. s angl. "Vilyams", 2008.- 984 s . 2 ekz.
26. Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investisii: Per. s angl. - M. INFRA-M, 2007. 1028 s.
27. Shevchuk D.A. Organizasiya i finansirovanie in vestisiy-Rostov n/D.:Feniks, 2008. - 272 s.
28. Neshitoy A. Investisii. -M.: "Izd dom "Dashkov i K"., 2008. 425 s.
29. Kojuxar V.M. Praktikum po ekonomicheskoy osenke investisiy -M.: Izd. dom "Dashkov i K".,2008. 148 s.
30. Endoviskiy D.A., red. Praktikum po finansovo-investisionnomu analizu: Situasii, metodiki, resheniya "KnoRus" -M., 2008. 352 b.
31. Sarev V.V. Osenka ekonomecheskoy effektivnosti investisiy.- SPb.: Petr, 2008. 482 s.
32. Mertens V. Investisii. -Kiev, 2002. 563 s.
33. Blank I.A. Investisionniy menedjment. -M., 2001. 470 s.
34. Abramov S.I. Investirovanie. -M., 2000. 440 s.
35. Epstein L. G. Sharing Ambiguity, American Economic Review, 2007.
36. Brealy R. and S. Myers "Principles of corporate finance" 6-th edition, 2008.

37. Kenneth M. Morris & Allan M.Siegel. Guide to understanding money and investing. 2008 by lighthbulb, press, Inc.

VII .Qo'shimcha adabiyotlar

38. Xodiev B.Yu., A.Sh.Bekmurodov A.Sh., Gofurov U.V., Tuxliev B.K., O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. - T.: Iqtisodiyot, 2009. - 120 b

39. Xodiev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh., Gafurov U.V. Mamlakatni jadal isloh etish va modernizasiya qilish - milliy taraqqiyotimizning mantiqiy bosqichi / Ilmiy-ommabop risola.- T.: TDIU, 2008, 57 6.

40. Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchalari (o'zbek va rus tillarida). Ilmiy-ommabop qo'llanma. (Bekmurodov A.Sh., Gimranova O.B., Shamshieva N.N.) T.: Iqtisodiyot, 2009. - 92 b. (elektron versiyasi bilan).

41. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizasiyalash y'lidida. Ekspres-prospekt. (Bekmurodov A.Sh., Berkinov B.B., Usmonov B.B., ?amidov O.M., Gafurov U.V. va Ne'matov I.U.) T.: Iqtisodiyot, 2009. - 5 b. (elektron versiyasi bilan).

42. Boltaboev M.R., Aliev A.A. Musta'illik yillarida O'zbekiston Respublikasi milliy boj-tarif tizimining shakllanishi / Ilmiy-ommabop risola.- T.: TDIU, 2008. - 37 b.

43. Bland M. Finansoviy krizis. - M.: AST-Astril-Xarvist. 2008. - 288 s.

44. Programma mer po neytralizatsii posledstviy mirovogo krizisa - v deystvii. // Biznes-vestnik Vostoka. ¹ 12, ot 19 fevralya 2009g.

45. Shoxa'zamiy Sh. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari, davomiyligi va saboqlar. // "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali. 2008 yil 4-son.

46. Tuxliev B.K."Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" fanidan o'quv-qo'llanma.-T.:TDIU, 2008.

47. Sirojiddinov K. "Xorijiy investitsiyalar" fanidan o'quv-qo'llanma.-T.:NamDU, 2010.

48. Imomov H.H. ."Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" fanidan o'quv-qo'llanma.-T.:TDIU, 2011.

VIII. Dissertatsiya va avtoreferatlar

49. Ahmatjonov K.B. "Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan korxonalarda moliyaviy hisob va auditni takomillashtirish yo'llari" Iqtisod fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-T.:2000.21-bet.

50. Yaxshiboev G.K. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy ta'minlash masalalari. Nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, 2005.

51. Iminov O.K. Kredit mexanizmini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi. T.: O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi, 2002.

52. G'ozibekov D. " O'zbekistonda investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari" i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, 20-bet

53. Xaydarov N.H."Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari" .-T:"Akadem-Xizmat" 2003y. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.14-15 betlar

IX. Davriy nashrlar, statistik hisobotlar va to'plamlar

54. "Investisionniy potensial Uzbekistana" X. X. Imomov 3-y Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya. g. Samara 20-21 noyabrya 2003 goda.

55. Xulxachiv B. V. Finansoviy rinok Rossiy kak mexanizm prevlecheniya investisiy. 2005.

56. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida byudjet-Soliq tizimining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari. -T.: TDIU. 2005 yil 14-15 dekabr.- 318 bet.

57. "Bozor, pul va kredit" jurnali.

58. "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi" jurnali.

59. "Davlat va jamiyat boshqaruvi" jurnali.

60. "Soliq va bojxona xabarlar" moliyaviy-iqtisodiy gazeta.

61. "Xalq so'zi" gazetasi.

62. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari.

63. "O'zbekiston Iqtisodiyoti" statistik ma'lumotlar to'plami. -T., 2011.

64. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 200-2010 yillardagi hisobot materiallari.

X. Internet saytlar

65. <http://www.mf.uz>.-O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;
66. <http://www.gov.uz> .- O'zbekiston Respublikasi hukumat sayti;
67. <http://www.soliq.uz>- O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi
68. <http://www.budjet.ru>.-Rossiya Federasiyasi byudjet tizimi;
69. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi sayti;
70. <http://uba.uz> O'zbekiston banklari Assosiasiyasi rasmiy saytidan.